

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**

Nocturne No. 20 in C Sharp Minor, Op. posth

Frédéric François Chopin

Vincent

**FRIDERIK SHOPEN**  
(1810-1849)**NOYABR**  
**№46**

CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
7-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-7**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-7**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 54 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>1. Latipova Nargizaxon Valijon qizi</b>	
YEVROPA VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ELLIPSIS KONSEPSIYASI.....	7
<b>2. Jabborova Shahnoza Mamalabi qizi</b>	
PIRIMQUL QODIROVNING "AVLODLAR DOVONI" ASARIDAN TARIXIY VA ARXAIIK SO'ZLAR TAHLILI.....	10
<b>3. E'zoza Yo'ldosheva Tolib qizi</b>	
TARIXIY VA ARXAIIK SO'ZLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	12
<b>4. Қдырбаева Улзада Кайрбаевна</b>	
ҚАРАҚАЛПАҚ ҚАҲАРМАНЛЫҚ ДЭСТАНЛАРЫНДА ИНВЕРСИЯ ҚУБЫЛЫСЫ .....	14
<b>5. Asanova Nasiba Yuldashevna</b>	
RUS TILINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....	16
<b>6. Bozorova Gulshan Chorshanbi qizi</b>	
TARIXIY VA ARXAIIK SO'ZLARING LINGVISTIK TAHLLILI .....	18
<b>7. O'roqova Munisa Sirojiddin qizi</b>	
ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ASARIDAGI TARIXIY VA ARXAIIK SO'ZLAR TAHLILI.....	21
<b>8. Toshboyeva Shahrizoda</b>	
"YULDUZLI TUNLAR" ROMANIDA TARIXIY VA ARXAIIK SO'ZLAR.....	23
<b>9. Ulashova Naima Xusniddin qizi</b>	
ABDULLA QODIRIYNING "MEHROBDAN CHAYON" ROMANIDAGI TARIXIY VA ARXAIIK SO'ZLAR TAHLILI .....	26
<b>10. Мухиддинова (Абдуллаева) Диляфуз Мансуровна</b>	
САТИРИЧЕСКАЯ ПОЛЕМИКА «Hudibras» СЭМЬЮЭЛА БАТЛЕРА.....	29
<b>11. Салойдинова Наргиза Шухратовна</b>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА АРХИТЕКТУРА- ҚУРИЛИШ ТЕРМИНЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС СИНТАКТИК ХУСУСИЯТЛАРИ .....	31
<b>12. Жумаева Феруза Рузикуловна</b>	
ОТРАЖЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ТРАНСПОЗИЦИИ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В СОВРЕМЕННЫХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ .....	33
<b>13. Botirova Maxliyo, Raxmonjonova Guljahon</b>	
"O'TKAN KUNLAR" ASARIDA IFODALANGAN ESKIRGAN SO'ZLARNING LINGVISTIK TAHLLILI .....	36
<b>14. Alisherova Sohibaxon, Nomonova Dilnoza</b>	
TIL-KELAJAK BUNYODKORI.....	38
<b>15. To'xliyeva Madina Soatmurot qizi</b>	
SOTSIOLINGVISTIKADA ICHKI VA TASHQI TIL SIYOSATI. O'ZBEK TILI MISOLIDA .....	40
<b>16. Nurboyeva Gulshan Ibragim qizi</b>	
TIL SOTSILOGIYASI VA SOTSIOLINGVISTIKA.....	42
<b>17. Otanazarova Shodiya A'zambek qizi</b>	
"SADDI ISKANDARIY" DOSTONI MUQADDIMASINING UMUMIY TAVSIFI.....	44
<b>18. Turayeva Jumagul Ibragim qizi</b>	
SOTSIOLINGVISTIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI.....	48
<b>19. Буранова Мадина Украмовна</b>	
ХАРАКТЕРИСТИКА ЧТЕНИЯ КАК ВИДА РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ .....	49
<b>20. Boltaboyeva Nargiza Maxamatjon qizi</b>	
TOPONOMIK LEKSIKOGRAFIYA TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMINING MUHIM YO'NALISHLARI SIFATIDA .....	52



## ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

YEVROPA VA O’ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ELLIPSIS KONSEPSIYASI

Latipova Nargizaxon Valijon qizi,  
o’qituvchi,  
Andijon davlat chet tillari institute,  
Andijon, O’zbekiston,  
E-mail: nargiz.latipova@inbox.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ellipsis tushunchasi va uning Yevropa va O’zbek tillaridagi xususiyatlariiga to’xtalib o’tiladi. Shuningdek, ellipsisning gapdagi holati va uning ko’rinishlari yoritib beriladi.

**Kalit so’zlar:** nutq, matn tilshunosligi , ellipsis, elliptik gaplar, noelliptik gaplar.

### ПОНЯТИЕ ЭЛЛИПСИСА В ЕВРОПЕЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Латипова Наргизахон Валижон қизи,  
Учитель,  
Андижанского государственный  
институт иностранных языков,  
Андижан, Узбекистон,  
E-mail: nargiz.latipova@inbox.ru

**Аннотация:** Данная статья посвящена понятию эллипсиса и его особенностям в Европейских и Узбекских языках. Также разъясняется положении и его проявления.

**Ключевые слова:** речь, лингвистика текста, многоточие, эллиптические предложения, неэллиптические предложения.

### THE CONCEPT OF ELLIPSIS IN EUROPEAN AND UZBEK LINGUISTICS

Latipova Nargizakhon Valijon kizi,  
Teacher,  
Andizhan state foreign languages institute,  
Andizhan, Uzbekistan,  
E-mail: nargiz.latipova@inbox.ru

**Annotation:** This article focuses on the concept of ellipsis and its features in European and Uzbek languages. In addition, the situation of ellipsis in the sentence and its manifestations are explained.

**Key words:** discourse, text linguistics, ellipsis, elliptical sentences, non-elliptic sentences.

Jahon tilshunosligida tillarni bir-biriga qiyoslash, ya’ni chog’ishtirish orqali o’rganish hozirda rivojlanib bormoqda. Bu borada ko’plab tilshunoslardan turli mavzularni yoritib berish maqsadida tadqiqot olib borganlar. Shu jumladan, ushbu maqola ham Yevropa va O’zbek tilshunosligida ellipsis tushunchasini, uning gapdagi holatini yoritib berishga bag’ishlanadi. Bu esa ellipsisning ko’rinishlari turli diskurslarda turlicha namoyon bo’lishini anglatadi.



Yosh tilshunosimiz D.N.Satimova ta’kidlaganlaridek “ Til va jamiyatning taraqqiy etishi esa doim ham standart leksika bilan cheklanmaydi, unda nostandard lug’atning yangi birliklari yuzaga kelishi ham kuzatiladi. Ushbu so’z va iboralarni bilish esa tilda so’zlashuvchilarini erkin muloqotga singishi, zamonaviy adabiyot va ommaviy axborot vositalarini teran tushunishi zarurdir.”[1,B.31]

Shuningdek, ellipsisning gapdagi xususiyatlari to’g’risida so’z borganda bu bevosita matn tilshunosligiga borib taqaladi. Matn tilshunosligi shakllanishi va rivojida nemis, fransuz, ingliz, polyak va boshqa dunyo tilshunoslarning o’rnini kattadir.[2,B.6-12]

Tilshunoslarning fikricha, aloqa aralashuvida so’z, so’z birikmasi, gap, ayrim hollarda matnlar ham ellipsisga uchrashi yoki nolisoniy vositalar bilan almashtirilishi mumkin.[3,B.71]

Tilshunos M.T.Irisqulov olib borgan tadqiqotlarining natijasidan kelib chiqib:—“Hamma gap bo’laklari bor-yo’qligi nuqtai nazaridan gaplar elliptik va noeliptik gaplarga ajraladi” deya ta’kidlagan. O’zbek tilshunosligida elliptik gaplar – to’liqsiz gaplar deb ham nomlanadi. Bunday gaplarda aytilyotgan fikrni ifodalash uchun zarur bo’lgan gap bo’laklarining ba’zilari so’zlovchi tomonidan atayin tushurib qoldiriladi. Bunday hol tinglovchiga unga yo’llangan fikrni tushunishiga xalal bermaydi. Chunki bu bo’lak gapirilyotgan shart-sharoitda oldingi gapdan yoki umuman mazmundan ma’lum bo’ladi.

Misol uchun : Siz qayerda ishlayapsiz -?. - Bankda.

Keltirilgan so’roq gapda faqat birinchi gap to’liq; javob esa elliptik gapdir. Elliptik gaplarning nutq jarayonida uchrab turishi tabiiydir.[4,B.137]

Bu masala tilshunos olimlar: M.A.K. Halliday va Hasan, P.Carell, M.Charolles, J.Renkema, K.Arregui, Frazier, Lyn and CH.Clifton,Witte, Stephen and Faigley, Lester, S.Lappin, G.Bown va G.Yule, Salkie, Raphael, T.Reinhart, B.Partee tomonidan ko’rib chiqilib, tilning taraqqiyot yo’lidagi muhim tamoyillaridan bo’lmish til vositalarini, muloqotchilarning kuchini hamda vaqtini tejash masalasidir. Odam kundalik hayotida vaqt, kuch, pulini tejashga harakat qiladi. Shunday intilish nutq jarayonida ham ro’y beradi. Ya’ni, kamroq so’z talaffuz qilish yo’li bilan fikrni tinglovchiga yetkazish maqsad qilinadi. Elliptik gaplar ko’proq og’zaki nutqda ishlatilsa, noeliptik gaplar ko’proq yozma nutqda qo’llaniladi.[4,B.138]

Yuqorida aytib o’tilganidek, ushbu maqolaning asosiy maqsadi ellipsisning gapdagi xususiyatlariga borib taqaladi. Albatta, bu ellipsis tushunchasining kelib chiqish tarixiga nazar solishni taqazo etadi. Ellipsis tushunchasi ( yunoncha. Ellipsis – tushish, tushirilish ) degan ma’nolarni bildirib, nutqiy aloqa jarayonida gap bo’laklarining muayyan maqsad bilan tushirilishi hodisasiga aytildi. Ellipsisni maqollarda juda ko’p uchratamiz. So’zlarning tushirilishi natijasida maqol tabiatga xos ixchamlik va ifodalilik yuzaga keladi :

Ayrilganni ayiq yer, bo’linganni bo’ri yer. Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, yomon bilan yursang qolarsan uyatga. Ahmoq og’asini tanimas, to’qmoq tog’asini tanimas.

Ushbu maqollarda to’ldiruvchi va ega gap bo’laklari ellipsis hodisasiga uchragan.

Ya’ni, birinchi maqolda < odam bilan >, ikkinchi maqolda < odamni >, uchinchi maqolda esa < kishi > so’zлari ellipsis hodisasi tufayli tushib qolgan.[5,O’quv qollanma]

Ingliz tilida gaplarda ellipsis hodisasining sodir bo’lishi uch xil ko’rinishda bo’ladi. Ulardan birinchisi yordamchi fe’l orqali, ikkinchisi gap bo’laklarini tushib qolishi orqali va uchinchisi gapda olmoshlarning tushib qolishi orqali sodir bo’ladi.

Misol uchun : I’ll come and see you when I **can**. (= can come with you ).

-Men kelaman va qachonki men kelolganimda ko’rishamiz.(=sen bilan birga kelolganimda).

I wanted to come with you, I won’t be able **to**. (= to come with you ).

-Men sen bilan birga kelishni hohlagandim,men uddala olmadim.(=sen bilan kelishni).

I couldn’t understand a word.=> Couldn’t understand a word.

Men so’zni tushuna olmagan edim=> so’zni tushuna olmagan edim

Ushbu keltirilgan misollardan birinchisida “ can ”- ( qila olmoq ) yordamchi fe’l hisoblanib, ellipsis hodisasi undan keyingi to’ldiruvchi gap bo’lagining tushirib qoldirilishi natijasida sodir bo’lgan. Ikkinchi keltirilgan misolda esa ellipsis hodisasi “ to ”, ya’ni o’zbek tilida “ jo’nalish kelishigi ” dan keyingi gap bo’lagining tushib qoldirilishi bilan izohlanadi. Uchinchi keltirilgan misolda esa ellipsis hodisasi “ I ”-(men) olmoshining tushirib qoldirilishi orqali sodir bo’lgan.

Ingliz tilida eng ko’p uchraydigan ellipsis shakli bu – “ VP ” yoki “ VPE ” ellipsis shaklidir. Bu shakl yuqorida keltirilgan ellipsisning birinchi turi ya’ni yordamchi fe’l orqali sodir bo’ladi. (6, Darslik)

Xulosa qilib aytganda, ellipsisning o’ziga xos xususiyatlarini uning ko’p hollarda og’zaki nutqda



sodir bo’lishi va maqol, iboralar tuzishda qo’l kelishi orqali izohlash mumkin. Bu esa nutqimizni yanada ixcham, chiroyligi ko’rinishida namoyon bo’ladi. Maqolada ko’rsatib o’tganimdek Ingliz va o’zbek tillarida ellipsisning sodir bo’lishi ko’p jihatdan o’xshash ekan. Eng ko’p uchraydigan ellipsisning ko’rinshi esa uning diologik matnlarda va og’zaki nutq jarayonida qo’l kelishidir. Ellipsisning gapdagagi xususiyatlardan eng yaxshi jihatni bu, uning yordamida biz og’zaki va yozma nutqni gap bo’laklari tushurib qoldirilishi orqali to’laqonli farqlab olishimizdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. D.N.Satimova, Ingliz va o’zbek leksik qatlami differensiyasi: standart va substandard. T-2021.DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0796-2021-3.B> -31.
2. Novoy v zarubejnov lingvistike. Vip.8. Lingvistika teksta.- M.Progress,1978;Moskalskaya. B:6-12.
3. M.Saidxonov. Dialogik nutqning kommunikativ tahlili\ O’zbek tili va adabiyoti, 2004, b-71.
4. M.T.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. b-176.
5. M.Yo’ldashev, S.Muhamedova, M.Saparniyazova. Matn lingvistikasi.T-2020. 5611600-Noshirlik ishi ta’lim yo’nalishi uchun o’quv qo’llanma.
6. Azar,Betty,Schramfer.Fundamentals of English grammar. New York-2003. Pearson Education.



PIRIMQUL QODIROVNING “AVLODLAR DOVONI” ASARIDAN TARIXIY VA ARXAIC SO‘ZLAR TAHLILI

Jabborova Shahnoza Mamalabi qizi

Termiz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” asarida qo‘llanilgan bir nechta tarixiy va arxaik so‘zlar tahlilga tortilgan. Arxaizm va istorizm o‘zaro keskin farq qilishi va ular orasidagi asosiy farqlar qisqacha bayon etilgan. Jamiatda sodir bo‘layotgan turli hodisalarini o‘rganan ekanmiz yangilanishlar bilan bir qatorda tarixga ham nazar tashlaymiz. Tilimizda yangi so‘zlar paydo bo‘lishi tufayli ba’zi so‘zlarimiz iste’moldan chiqmoqda, ba’zi so‘zlarimiz o‘rniga boshqa so‘zlarni qo‘llamoqdamiz.

**Kalit so‘zlar:** Tarixiy so‘zlar, arxaik so‘zlar, til rivojlanishi, eskirgan so‘zlar.

**Annotation:** In this article, several historical and archaic words used in Pirimkul Kadyrov's "Avlodlar Dovani" are analyzed. Archaism and historicism differ sharply and the main differences between them are briefly described. As we explore the various happenings in the community, we look back at history as well as updates. Due to the appearance of new words in our language, some of our words are falling out of use, and we are using other words instead of some of our words.

**Key words:** Historical words, archaic words, language development, obsolete words.

Qadimgi turkiy til tilshunoslikning bir sohasi va o‘quv predmeti sifatida O‘zbekistonda o‘tgan asrning 80-yillarida paydo bo‘ldi. Boshqa turkiy tilli respublikalarda esa ancha yillar oldin 60-yillarda boshlangan edi. Qadimgi turkiy til falsafa bilan ham tutashdir. Qadimgi turkiy qavmlarning diniy tessavurlari, dunyoqarashi mujassamlashgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining fonetik tizmi, asosiy lug‘at tarkibi va dramatik qurilishi qadim turkiy tillar manbaida yuzaga kelgan bo‘lib, davrlar o‘tishi bilan uning tovushlar tizimida sifat va miqdor o‘zgarishlari yuz bergan. Lug‘at tarkibi asosiy lug‘at fondi negizida yasalgan yangi so‘zlar hisobiga kengayib boyib borgan. Barchamizga ma’lumki til uning lug‘ati doim o‘sish o‘zgarishda. Bunday o‘sish o‘zgarish tez va uzil-kesil sodir bo‘lmaydi. Ilgari juda tez-tez ishlatib kelinadigan ba’zi so‘zlar endi deyarli qo‘llanilmaydi boshqa esa aksincha ko‘proq va tez-tez ishlatiladi. Tildagi bunday jarayonlar u xizmat qilayotgan jamiyat hayotining o‘zgarishi bilan bog‘liq yuqorida aytib o‘tilganidek, tilning leksik tarkibidagi o‘zgarishlar doimiy ravishda sodir bo‘ladi, ba’zi so‘zlar eskiradi va tilni tark etadi, boshqalari paydo bo‘ladi. Mayjud modellarga ko‘ra o‘zlashtiriladi yoki shakllanadi.

Tilning hayoti so‘zlar tarkibi va ma’nolarining doimiy o‘zgarishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Tilimizda yo‘q bo‘lib ketgan juda kam qo‘llanadigan so‘zlar eskirgan leksema deb ataladi. Eskirgan so‘zlar – u yoki bu sabablarga ko‘ra hozirgi nutqda qo‘llanilmaydigan so‘zlearning maxsus guruhi. Eskirgan so‘zlar o‘ziga xos tarixiylikni mukammal ifodalaydi, adabiy matnni rangbarang va yorqin qiladi. Ammo to‘g’ri foydalananish uchun siz har doim tushuntirish lug‘atiga murojat qilishingiz kerak, shundagina iboralar oxir-oqibat bema’nilikka aylanmaydi. Eskirgan so‘zlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- 1.Istorizmlar;
- 2.Arxaizmlar.

**Istorizmlar** o‘tmish voqeysligini nomlash zaruriyati bilan hozirgi tilda ishlatilgan eski leksik birlik istorizm deyiladi. Misol uchun a’yon, arkon, qal’a.

**Arxaizm** eskilik bo‘yog‘i bor til birligi bo‘lib asli leksik birlikning biron jihatni eskirib o‘z o‘rnini boshqa leksik birlikga bo‘shata borishi natijasida paydo bo‘ladi. Arxaizm sinonomiyaga asoslangan. Misol uchun: muarrix- tarixchi, lang- cho‘loq, tayyora- samolyot, savr- buqa.

Biz Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” nomli tarixiy romanida ko‘plab tarixiy va arxaik so‘zlarni qo‘llanganligini bir nechta misollar orqali ko‘rishimiz mumkin.

*Devonimga barcha amirlar, viloyat hokimlari, hamma arkoni davlat to‘plandi.*

**ARKON** - ulug‘ martab egalari, katta amaldor, mansabdar arboblar

*Jimir-jimir yiltirab turgan tangalarning har biri dehqon-u kosiblardan? qancha zo‘ravonliklar bilan oliq-soliq tarzida undirib olinganikin? Eshkakchi Nizom bu tangalar yiltirashida jabrdiyda bechoralarning ko‘z yoshlarini ko‘rganday bo‘ldi.*



KOSIB - qo‘l ishi bilan shug‘ullanuvchi ya’ni oyoq kiyim (etik, mahsi va shu.k) tikishi bilan shug‘ullanuvchi hunarmand.

*Men rajputlarni<sup>3</sup> o‘zimga teng ko‘rib qo‘shinimga oldim, mahkamalarda hind tilini joriy etdim!  
Shu mamlakat obod bo‘lsin deb mingdan ortiq rabotlar, karvonsaroylar qurdim.*

RAJPUT (sanskrit tilidan raja-putra, "shoh o‘g‘li")-patrilineal urug‘larda tashkil etilgan va asosan markaziy va shimoliy Hindistonda joylashgan o‘n ikki milliononga yaqin yer egalarining har biri.

*Hut oyidayoq boshlangan hind issiqlari hamalda muttasil ko‘tarilib borib, savrning o‘rtalarida chidab bo‘lmas darajaga yetdi.*

SAVR (arabcha: buqa, ho‘kiz) - o‘n ikki burjning biri. Hamal va javzo burjlari o‘rtasida joylashgan.

*Yo‘q, maharoja, - dedi.*

MAHAROJA - ulug‘ hukmdor. Maharoja hokimiyati Hindiston mustaqilligining boshlang‘ich yillarda ham saqlangan.

*Sherxon yoshi oltmishdan oshgach,tug‘ilgan yurti Sasaramda chiroyli ko‘l o‘rtasidagi orolga o‘zi uchun salobatli marmar maqbara qurdirgan edi.*

MAQBARA (arab: marqad, turbat) biror mayitning jasadi joylashgan me’moriy inshoot yoki tosh tobut (daxma, sag‘ana) Maqbara usti qubbali chortoqli bino bo‘lib, ramziy g‘oyalarni o‘zida ifodalagan.

*Shohi Kobul tog‘ining etaklaridan chiqadigan chashmalar suvi Gulkina mavzeidan nariga o‘tib, baland tepalik ustiga joylashgan arkning yonveridagi maysazorlarga ham jildirab yetib keldi.*

MAVZE - joy. Shaharning ayrim nomlar bilan yuritiladigan qismlari. Qadimda shahar devoridan tashqarida joylashgan, shaharlarning xususiy mulki hisoblangan joylar Mavze deb atalgan.

*Bezovta qilmanglar, o‘zin chiqgaymen, - dedi va kuy ovozi kelayotgan tillakori boloxonoga sekin ko‘tarildi.*

BOLOXONO (bolo+xona) Maxalliy tipdagi imoratning ikkinchi qavati va shu ikkinchi qavatdagagi xona.

*Belidagi fo‘tasini yechib, eski to‘nining barlarini silkitdi.*

FO‘TA (forscha) - matodan qilingan belbog‘. Belga bir necha marta aylantirib o‘raladigan uzun belbog‘.

*Adhamxon ko‘kka bu javobni Dehliga yetkazib borganda Bayramxon Jamna va Ganga oralig‘idagi duoba yo‘llari bilan Laxo‘rga qarab ketmoqda edi.*

DUOBA- ikki suv oralig‘i.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek tilini leksikasini o‘rganish doimiy ravishda dolzarb bo‘lib kelmoqda. Jamiyatda sodir bo‘layotgan turli hodisalarini o‘rganar ekanmiz yangilanishlar bilan bir qatorda tarixga ham nazar tashlaymiz. Tilimizda yangi so‘zlar paydo bo‘lishi tufayli ba’zi so‘zlarimiz iste’moldan chiqmoqda, ba’zi so‘zlarimiz o‘rniga boshqa so‘zlarni qo‘llamoqdamiz. Bizni arxaik va tarixiy so‘zlarni o‘rganishimizdan maqsad badiiy asarlarni to‘laqonli ravishda tushunib yetish. Arxaik va eskirgan so‘zlarning izohli lug‘atini shakllantirish kitobxonlik madaniyatini rivojlantiradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” Toshkent: 2006
2. I.Shoabduraxmonov, M.Asqarova, A.Xojiev, I.Rasulov, X.Donyorov, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent:1980
3. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2006



**TARIXIY VA ARXAIIK SO‘ZLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI**  
(Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon romanı” misolida)

E’zoza Yo‘Idosheva Tolib qizi  
TerDU O‘zbek filologiyasi fakulteti  
2- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada eskirgan so‘zlar tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida qo‘llanilgan tarixiy va arxaik so‘zlar tahlilga tortilgan. O‘zbek tilshunosligida so‘zlarning etimologik jihatlari, ma’nolari hozirgi kunda qanchalik darajada saqlanib qolgani va ularni o‘rganish usullari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** leksema, arxaik so‘zlar, tarixiy so‘zlar, atama, lisoniy xususiyat.

**Annotation:** In this article, obsolete words are analyzed from the point of view of linguistics. During the analysis, the historical and archaic words used in Abdulla Qadiri's novel "Mehrobdan Chayan" were analyzed. In Uzbek linguistics, the etymological aspects of words, the extent to which their meanings have been preserved today, and the methods of their study are discussed.

**Key words:** lexeme, archaic words, historical words, term, linguistic feature.

Rivojlanish – obyektiv, dialektik jarayon bo‘lib, bir sifatdan boshqa sifatga o‘tish natijasida yuz beradigan o‘zgarishlar tufayli ro‘y beradi. Dunyodagi har bir predmet hodisa doimiy harakatdadır. Xuddi shuningdek, til ham hamisha o‘zgarishda. V.A. Zveginsev aytganidek: “Jamiyatsiz rivojlanish xususiyatini yo‘qotadi va u sun’iylashadi”.

Mana shunday o‘zbek tilining taraqqiyoti davrida ham uning barcha sohalarida ma’lum o‘zgarish lar yuz berdi. Bunday o‘zgarishlar uning leksikasi uchun juda xarakterli hodisa edi.

Bunda birinchi tildagi ayrim so‘zlarning eskirishi, iste’moldan chiqib ketishi kuzatilsa, ikkinchidan tilda yangi so‘zлarni paydo bo‘lishi kuzatiladi. Bu ikkala hodisa ham tildagi ma’lum ob’ektiv tildagi ayrim sabablar asosida ro‘y beradi. Hozirgi adabiy tilda eskirgan so‘zlar o‘ziga xos xususiyatlarga ko‘ra 2 bo‘linadi:

1) Tarixiy so‘zlar 2) Arxaik so‘zlar

Tarixiy so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilda qo‘llanuvchi o‘tmishga oid, iste’moldan chiqib ketgan narsa-hodisa ni bildiruvchi so‘zlardir. Tarixiy so‘zlar bildiradigan narsa hodisa iste’moldan chiqib, o‘tmish voqeligiga aylangani sababli bu leksemaning ko‘philigi hozirgi davr kishisi uchun notanish bo‘lishi mumkin. Tarixiy so‘zlar hozirgi o‘zbek tilda ham zarurat taqozosiga ko‘ra qo‘llanadi. Xususan: tarixga oid ilmiy asarlar va darsliklarda, o‘tmish voqealarini aks ettiruvchi badiiy asarlarda ishlataladi.<sup>1</sup>

Arxaik so‘zlar o‘z o‘rnini boshqa leksemalarga bo‘shatib bergen leksik birlik. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa hodisa boshqa leksema bilan atalib, avvalgilar iste’moldan chiqib ketadi.

Buni Abdulla Qodiriyning mashhur “Mehrobdan chayon” romanidan misollar orqali ko‘rishimiz mumkin.

1. *Solih maxdum bu kun odatdan tashqari eshilib ketdi, masjiddan chiqib to‘g‘ri qassobning oldig‘a bordi.*<sup>2</sup> Ushbu gapda qo‘llangan “maxdum” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib xizmat qilinuvchi odam, pir va ustozlarga beriladigan laqab hamda ulamolarning o‘g‘illariga nisbatan ham ishlataladi.

2. *Kaniz O‘rmonbekni yetaklab chiqa boshladi.* Kaniz so‘zi qullik sharoitidagi erksiz ayol, podsho saroyidagi xizmatkor ayol.

3. *Yosh sipohlar xon va O‘rmonbekni zinada goldirib, to‘g‘riga o‘tdilar.*

Sipoh ( fors.- jangchi, askar) erkin mulkdor otliq qo‘sish vakili.

4. *O‘rda qo‘rg‘onining tashqari aylanasi ajoyib gulzorlar, anvo‘i mevalik daraxtlar bilan ziynatlangan.* Qo‘rg‘on - o‘rtalarda qalin va baland mudofaa devori bilan o‘rab qurilgan bir darvozali shahar qal‘a.

<sup>1</sup> R.Sayfullayeva “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” “ Fan va Texnalogiyalar”- Toshkent 2009- yil

<sup>2</sup> A. Qodiri “ Mehrobdan chayon” “ Sharq” – Toshkent 2016-yil



5. Solih maxdumning otasi Madalixon madrasasida bir necha yillar mudarris bo‘lgan. Mudarris ( arab – dars beruvchi ) madrasa o‘qituvchisi , ular o‘qitiladigan muayyan fanlardan dars beradi.

6. Hujra eshigida qo‘sqi po‘stunga o‘ralib turg‘an qorovul Anvarning yonig‘a kelib salom berdi. Qo‘sqi - juldur, eski ma’nolarida keladi.

7. Sultonali mirzo muftilar to‘g‘risida bir narsa deyolmasa ham, Abdurahmonni jo‘natishga isror etdi. Isror etmoq - qistamoq,

8. Devonda mendin g‘ayri mavsuvroq kishi topilmadi. Mavsuq - ishonchli, tajribali shaxs.

9. Anvarning do‘siti bo‘lg‘on Sultonalini barimta ushlaganlar agar Anvar ertaga kelmasa do‘sini o‘ldurar emish. Barimta - garov,

Bu misollarni tahlil qilarkanmiz, unda keltirib o‘tilgan maxdum , kaniz, Turkiston, sipoh, o‘rda kabi leksemalarni tarixiy so‘zga kiritishimiz mumkin. Chunki bu leksemalar ma’lum davrlarda bor bo‘lgan , ammo keyingi bosqichlarda narsa - hodisalarning atamasi bo‘lgan so‘zlar ham tarixiylik kasb etgan va tarixiy so‘zga aylangan.

Mudarris (ustoz) , qo‘sqi (eski ) isror etmoq ( qistamoq ), mavsuq ( ishonchli shaxs), barimta ( garov) kabi so‘zlar arxaik so‘zlar sirasiga kiradi. Ushbu leksemalar o‘z ma’nosini saqlab qoladi va o‘z sinonimiga nisbatan eski so‘zga aylanadi.

Yuqorida misollar orqali ma’lum bo‘ladiki, tarixiy va arxaik leksemalar bu ikki tur leksikaning bir qatlami (eski qatlam)ga oid bo‘lsa, ular boshqa boshqa hodisadir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarixiy va arxaik so‘zlar badiiy adabiyotda mamlakatdagi tarixiy vaziyatni qayta tiklash, milliy va madaniy an‘analarini yetkazish uchun ishlataladi. Shuningdek, badiiy asarning lisoniy xususiyatlarini o‘rganish ta’lim jarayonida muhim uslubiy vosita ham sanaladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. A.Qodiriy. “Mehrobdan chayon”. Sharq. Toshkent 2016.
2. R.Sayfullayeva. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Fan va texnologiyalar. Toshkent. 2009-yil
3. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2003-yil



## ҚАРАҚАЛПАҚ ҚАҲАРМАНЛЫҚ ДӘСТАНЛАРЫНДА ИНВЕРСИЯ ҚҰБЫЛЫСЫ

Кдышбаева Улзада Кайрбаевна

Қарақалпақ мәмлекеттік

университеті таяныш докторанты

Телефон: +998(91) 388 16 95

ulzadakydyrbaeva@gmail.com

**Аннотация:** Инверсия құбылысы халық аўызеки дөретпелери тилинде жумсалғанда қаҳарман образын көркем сүйретлеу, ўақыяны тәсирли баянлау сыйқылдықтарда хызметтерди атқарады. Мақалада стилистикалық фигура инверсия, оның өзине тән өзгешелиги, фольклорлық шығармаларда жумсалығы ҳәм атқаратуғын хызметтери үйренилген.

**Таяныш сөздер.** инверсия, фольклор, дәстан, стилистикалық фигура, эмоционал-элспрессив мәни.

Инверсия стилистикалық хызметте қолланылғанда сөздердин орын тәртибин туғыдан-туұры өзгертий арқалы гәптеги тийкарғы айтылажақ пикирди ажыратып көрсетиј ушын жумсалады. Көркем әдебият стилиндеги поэзиялық қатарларда инверсияның орны айырықша болып есапланады. Себеби оларда авторлар бир үақыттың өзинде еки түрли мақседті әмелге асырыу мүмкін болады. Бириңишиден, текстти көркем сәүлелендиријүгө ерисилсе, екиншиден үйқасты тәмийинлеу хызметин де атқарады. Усындағы мақседтерге байланыслы фольклорда әсиресе дәстанлар тилинде инверсияны жийи ушыратыуымыз мүмкін. «Көркем текстте сөйлеу ағзаларының инверсия құбылысына ушырауы композициялық, көркем-әстетикалық мақседтке бағдарланып, қосық қатарының, куплет ҳәм тексттин ыргактық-интонациялық қурылышына, буын санларының бирдейлигиниң сақланыуына, үйқасты дүзиүгө ҳәм сақлауға байланыслы болады» [1.115].

Инверсия гәптеги сөздердин орынларының алмастырылып қолланылығы болып, ол аўызеки сөйлеуде де, көркем әдебиятта да, поэзияда сондай-ақ проза жанрларында да кең қолланылады. Ол көркем текстте тәсирли баянлау, айтылған пикирдин эмоционал-элспрессив мәнисин арттырыу үазыйпаларын атқаратуғын ең көп қолланылатуғын стилистикалық фигуралардың бири болып есапланады.

Инверсия фольклорда әсиресе дәстанлар тилинде жийи ушырасады. Олар гәптеги бир ағзаны ғаптип орайына жайластырып, сол орынға логикалық пәт түсіреди. Бул болса оқыушы яки тыңлаушының шығарманың майда деталларына шекем итибарын тартыуға жәрдем береди. Инверсияның фольклор тилинде жумсалығын «Алпамыс» дәстанынан алынған мысаллар жәрдемінде үйренип шығамыз.

– Мен мингенмен Байшубардың белине,  
Қалмақ қорқсын жортқан аттың демине,  
Еглей бермең еки бирдей ғаррылар,  
Сапар еттим Тайшыханның елине («Алпамыс»).

Келтирилген мысалда «–Мен Байшубардың белине мингенмен» көринисінде қолланылғанда тийкарғы дыққат-итибар Байшубарға қаратылған болар еди. Бирақ, дәстан тилинде тийкарғы айтылажақ пикир сапарға атланыу яғни ис-хәрекетке қаратылған болғанлықтан, гәптеги сөздердин орын-тәртиби белгili мақседтке бола өзгертилип «–Мени мингенмен Байшубардың белине» деп қолланылған. Екинши қатарында болса «Қалмақ жортқан аттың демине қорқсын» – деп туғра орын тәртиптеге жумсалғанда оқыушының дыққаты тиккелей атқа қаратылар еди. Ал, «Қалмақ қорқсын жортқан аттың демине» деп инверсиялық усылда қолланылғанда тыңлаушы яки оқыушы қалмақ халқы ҳақында пикир жүрите баслайды. Сондай-ақ бул орында инверсиядан шебер пайдаланғанлықтан қаҳарманнаның сол үақыттағы айбаты ҳәм қәхәрин көз алдымызға келтирийимиз мүмкін.

Еглей бермең еки бирдей ғаррылар,  
Сапар еттим Тайшыханның елине («Алпамыс»).

Бул қатарларда да инверсия құбылысы қолланылып, тийкарғы айтылажақ мәни ис-хәрекет яғни сапарға кетиү болғанын билийимиз мүмкін.



«Инверсия аўызеки сөйлеў тилине тән қәсийет. Көркем текстте қаҳарманлар тилин жанлы сөйлеўге жақынластырыўда, олардың тилин индивидуалластырыўда бул усылдан пайдаланылады» [2.70].

Сени көрип мениң болды ақлым лал,  
Кеўлиңе келмесин, айтсам қыйлы-қал,  
Хан алдынан атланыпсан, қайнаға,  
Мендей келиниңниң айттар арзы бар («Алпамыс»).

Жоқарыда келтирилген мысалдағы инверсия құбылысының әхмийетин көрип шығамыз. Сени көрип болды менин ақлым лал, – деген қатар әдеттеги орын-тәриби бойынша «Мениң ақылым сени көрип лал болды», – түрінде қолланылғанда ҳайран қалыў сезимлерин билдириўде стиллик бояў жетерли болмаған болар еди. Кеўлиңе келмесин, айтсам қыйлы-қал, Айтсам кеўлиңе қыйлы-қал келмесин (әдеттеги орын-тәртип). Бунда пикирдин тәсирлилік күшин арттырыў мақсетинде баянлауыш сөз шақабы гәптиң басына шығарып қолланылған.

«Инверсиялар көркем тексттеги, косық қатарындағы метрдин, өлшемниң шеклеўши қәсийетлерин қандай да бир басқышта бийтәреплестириўши ўазыйпа атқарады, басқаша айтқанда, норманы бузыў сыпатында қаралатуғын инверсия өлшемге емес, косық қатарындағы, контексттеги аңлатылған ойға кеўил аўдарыўға түрткі болады» [1.116]. Шынында да, гәптеги сөзлердин орнын өзгертип қолланыў арқалы көркем тексттеги тийкарғы айтылажақ пикирди түснүүгө мүмкүншиликтөр береди.

Мойнында көргөнмен алтын тумарды,  
Мингенде тарқатар мудам қумарда,  
Фарры атыңды мине алмайман, жан ата,  
Бизге бергил олжа болған Шубарды («Алпамыс»).

Келтирилген мысалда Шубар атты образлы түрде тәрийплеў ушын гәптеги сөзлердин әдеттеги орын-тәртиби өзгертилип жумсалғанын көриүимиз мүмкин. Бул түрдеги инверсиялар ритм пайда етиў ўазыйпасын атқарады, пикирге айырықша интонация береди, эмоционаллық ҳәм көркемлигин асырып, оқыўшының дыққатын тийкарғы айтылажақ пикирге қаратыўға жәрдем береди. «Поэтикалық инверсия бир қанша хәдиселер менен бирге әмелге асады. Буларға шайырдың ўақыя-хәдиселерди билиүдиң поэтикалық образы, индивидуал стили, ишкі кеширмелер менен бирге сәүлелендериў усылы киребиди» [3. 1].

Жуўмақлап айтқанда, дәстанлар тилиндеги инверсия құбылысы атқарыўшының белгили пикирин, ондағы қаҳарманларға мұнәсиетин билдиреди, қаҳарманлардың ишкі сезимлерин образлы сәүлелендериўгө, олардың характеристерлерин ашып бериўгө жәрдем береди.

### Пайдаланылған әдебиятлар:

1. Абдиназимов Ш.Н. Лингвопоэтика. (Оқыў қолланба). – Тошкент. Yoshlar nashriyot uyi, 2020.
2. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Ўзбекистон Республикаси ФА «Фан» нашриёти, 2007.
3. Рахматов М.М. Инверсия как стилистический приём на материале газелей Алишера Навоий // Приволжский научный вестник. – Ижевск, 2016.



## RUS TILINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Asanova Nasiba Yuldashevna

Qoraqalpog’iston Respublikasi Amudaryo tumani  
3-son mактабning rus tili fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada asosiy e’tibor umumiy o‘rta ta’lim maktablarda rus tili va adabiyotini o‘qitish va uning fan sifatida shakllanishing ahamiyatiga qaratilgan, fanning rivojlanish tarixiga nazar tashlangan.

**Kalit so’zlar:** rus tili, ta’lim, xalq, o’zbek, rus, maktab, tarjima, yoshlar, sharq.

Bugungi kun mustaqil O‘zbekistonda o‘zbek xalqi bilan bir qatorda, tili, madaniyati turfa xil bo‘lgan boshqa ko‘plab xalqlar yashab kelmoqda. Mamlakatning xorijiy etnik (o‘zbek bo‘lмаган) aholisi vakillari o‘z maktablariga ega bo‘lib, ularda o‘quvchilarni o‘z xalqlarining урф-одатлари va madaniyati bilan tanishtiradilar va mana shunday etnik xalqlarni birlashtirayotgan til rus tilidir. Shuning uchun ham umumta’lim maktablarida rus tilini o‘qitishga va uni ravnaq toptirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Har bir ta’lim muassasalarida, maktabgacha ta’limdan tortib oliv va undan keyingi ta’limda ham ta’lim tili rus tili bo‘lgan guruhlar va yo‘nalishlar mavjud. Ushbu guruhlar rus hamda rus bo‘lмаган o‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida o‘zbek tilini shu bilan bir qatorda rus tilini yetarlicha ravon bo‘lishini ta’minlashi va ularni O‘zbekistonning barcha xalqlari uchun umumiy madaniy, birlashtiruvchi ahamiyatga ega bo‘lishi, o‘zbek va rus adabiyoti (madaniyati) bilan tanishtirishi kerak. Bu zamonaviy sharoitda, birinchi o‘rinlarda xalqlarning madaniy o‘zaro munosabatlarini tashkil etish, o‘quvchilarning Rossiyaning boshqa milliy adabiyotlari (madaniyati) bilan aloqalarini shakllantirish vazifasi qo‘yilgan.

Milliy maktablarda rus adabiyotini o‘qitish metodikasida “ikkita (mahalliy va ruscha) og‘zaki va badiiy tizimlarning kommunikatsiyasi” tushunchasi paydo bo‘ldi. Bu taniqli qirg‘iz metodisti L.A. Shayman tomonidan taklif qilingan bo‘lib, u turli xalqlarning badiiy idrok etishlari o‘rtasidagi ziddiyatni ta’kidlab, rus adabiyoti idrokini rivojlantirish va boyitish uchun ushbu tafovutni aniqlash va oldindan ko‘rish kerak deb hisoblagan. L.A. Shayman asarlarida o‘quvchilarning mahalliy adabiyotida (madaniyatida) milliy xususiyatni aniqlashga ko‘proq e’tibor qaratiladi. O‘zbek adabiyoti qabul qilinadigan milliy va madaniy muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini inkor qilmasdan, biz rus adabiyotining o‘ziga xosligini, tarixiy shakllangan ma’naviy muhitni hisobga olishni bir xil darajada muhim deb bilamiz. Shu sababli, milliy maktabda maktab adabiyotini o‘qitishning eng muhim masalalaridan biri ham mahalliy, ham rus adabiyoti yozuvchilari tomonidan dunyoga xos qarashlarini, ularning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini, o‘ziga xosligini ona va rus adabiyoti tizimini o‘zaro bog‘lash zarurat hisoblanadi.

Mamlakatimiz folklorlari va milliy adabiyotlarining umumiy jihatlari juda ko‘p: shuning uchun qahramonlarning o‘z ona yurtiga, mehnatga, ularni o‘rab turgan tirik tabiatga munosabati, yaxshilik va yomonlik, or-nomus, vijdon va boshqalarni anglashi o‘xshash. Ammo aniq farqlar ham mavjud. Milliy (o‘zbek) va rus adabiyotlarida milliy o‘ziga xoslikni oshkor qilish har ikkala adabiyotga xos bo‘lgan tipologik umumiylikni taqqoslashda topish va shu jamiyat orqali o‘quvchilarni ular uchun boshqa (mahalliy bo‘lмаган) madaniyatga o‘tkazish uchun zarurdir. Shu bilan birga, boshqa madaniyat bilan tanishish, tabiiyki, mahalliy madaniyatning allaqachon mavjud bo‘lgan qiyofasiga joylashtirilgan.

Tipologik umumiylorra tayanish uslubiy jihatdan ahamiyatli bo‘lib tuyuladi: milliy maktabda, umuman rus bo‘lмаган har qanday auditoriyada rus adabiyotini o‘rganish xususiyatlarini belgilaydi. Rus va o‘zbek adabiyotini birlashtirish metodikasining elementlari ko‘plab rus bo‘lмаган o‘quvchilar o‘qiyotgan rus maktablarida ham qo‘llanilishi mumkin. Bu mamlakatda rus maktabining yo‘q bo‘lib ketishi xavfi paydo bo‘lishining oldini olishga yordam beradi. So‘nggi paytlarda rus maktabining milliy mintaqada mavjudligini inkor etish tendensiyasi haqida gap boradi, chunki u nafaqat rus bolalarini, balki boshqa etnik guruhlarning vakillarini ham tarbiyalaydi.

O‘zbekistonda rus tiliga o‘qitish asosan XIX-asr yarmiga borib taqaladi. Bunga sabab mustamlaka bo‘lgandan so‘ng to‘liq rus tilini o‘rgangan o‘zbek yoshlari ziyoli bo‘la boshlaganidir. 19-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Toshkent, Buxoro va Xiva maktablarida Pushkin, Gogol, Lermontov, Nekrasov, Tolstoy va boshqalarning asarlarini o‘rganila boshlandi. 19-asrda A.S. Pushkining



ertaklari tarjima qilingan. Buxoro, Xiva va Toshkentdagi madrasalarda o‘quv dasturiga kiritilgan “Baliqchi va baliq haqidagi ertak” («Сказка о рыбаке и рыбке») eng ko‘p o‘qilgan. Ertaklarning tarjimalari 1899-yilda A.S. Pushkin tavalludining 100 yilligi sharafiga kitob sifatida nashr etilgan. 1905-yildan buyon buyuk shoirning asarlari bilan tanishish kengayib bormoqda. Bu masalada ziylolar-demokratlar Behbudiy va Avloniy faol edilar. Ular Sa’diy, Jomiy, A. Navoiy asarlari bilan bir qatorda I. Krilov, L.N. Tolstoy, K. Ushinskiy, A. Pushkin asarlaridan foydalanib maktablarda dars bergenlar.

O‘zbekistonda S. Borodin, M. Sheverdin, V. Yan, Ya. Ilyasov, A. Udalov, B. Parmuzin kabi yozuvchilar o‘z asarlarini rus tilida yaratdilar. Rus yozuvchilari Rossiyaning qadimgi tarixini, O‘rta Osiyo va Yevropa xalqlarini o‘rgandilar, Sharq xalqlarining qadimiylarini yodgorliklarini yaxshi bildilar. Ilyosov Xorazmnинг qadimiylarini mavzusiga bag‘ishlangan “G‘azab yo‘li” («Тропа гнева») romani (1956), “Qora beva” («Черная вдова») (1966) va “Oltin tasvir” («Золотой истукан») (1973) hikoyalarni tarjima qilgan. V. Yan (1875–1854) – rus yozuvchisi, O‘zbekistonda yashagan. U “Qo‘rg‘ondagi chiroqlar” («Огни на курганах») romanini (1932), “Chingizxon” trilogiyasini (1939), “Oxirgi dengizga” («К последнему морю») (1955) va boshqalarni yozgan.

20-asr oxirida o‘zbek shoiri Abdulla Oripov (1941–2016) “Pushkin” she’rini yozdi. Uning she’ri mulohaza va hissiy kechinmalarga boy, o‘quvchiga ulkan rus shoiri obrazi taqdim etiladi, go‘yo shoir-muallif tomonidan yangicha kashf etilgan. So‘nggi ikki asr davomida Rossiyaning mumtoz adabiyoti she’riy Sharqni dono va go‘zal qadimiylik mamlakati sifatida ochdi va kashf etmoqda, shuningdek, O‘zbekiston yozuvchi va shoirlari Yevropa va Sharq asarlarini sinchkovlik bilan o‘rganib, o‘zlarining ajoyib ijodlarini yaratdilar. Mana shunday izlanishlar, tarjimalar orqali O‘zbekistonda rus adabiyoti manbaalari boyib bormoqda, natijada “Adabiyot” fani ravnaq topib boryapti.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Айбек. Сочинения. – Ташкент, 1974. Том 9.
2. Алимджан Х. Литература узбекского народа // Литература и искусство.
3. Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979.
4. Салаев К.Б. Русская литература в Узбекистане. Молодой ученый. – 2017



TARIXIY VA ARXAIIK SO‘ZLARINING LINGVISTIK TAHLILI  
(Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanini asosida)

Bozorova Gulshan Chorshanbi qizi

Termiz davlat universiteti  
O‘zbek filologiyasi fakulteti  
2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek tili taraqiyotida muhim o‘ringa ega bo‘lgan tarixiy va arxaik so‘zlar tahlil qilingan. Arxaik sõzlarning sinonimi haqida fikr yuritilgan. Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidagi tarixy va arxaik so‘zleri lingvistik tahlil qilinadi. Tarixiy va arxaik so‘zlarning til taraqqiyoti va lug‘at boyligi oshishida tutgan o‘rnini haqida fikr yuritiladi

**Kalit so‘zlar:** tarixiy so‘zlar, arxaik so‘zlar, leksik arxaizm, semantik arxaizm, fonetik arxaizm.

**Annotation:** The article analyzes historical and archaic words that have an important place in the development of the Uzbek language. Synonymy of archaic words is discussed. Historical and archaic words in Abdulla Qadiri's novel "O'tkan Kunlar" are analyzed linguistically. The role of historical and archaic words in the development of the language and the increase of vocabulary is discussed.

**Key words:** historical words, archaic words, lexical archaism, semantic archaism, phonetic archaism.

Tarixiy so‘zlar o‘tmishdagi narsa va hodisalarning nomi bo‘lgan, ammo hozir eskirib qolgan so‘zlar tarixiy so‘zlar deyiladi. Tarixiy so‘zlar jamiyatda yo‘q bo‘lib ketgan narsalar, shaxslar haqida gap borganda qo‘llaniladi. Hozirgi tilda ularning sinonimi yo‘q. Masalan: foytun, yasovul, taxt, kanizak, dinor (tilla pul), chaqirim (1 km), tosh (8 chaqirim - 8 km), gaz (71 sm), botmon (176, 128 kg), misqol (4,25 g.), miri (5 tiyin). Bunday tarixiy sõzlar qadimgi davrlarning tumushi, madaniyati, xojaligi, ierarxiya harbiy siyosiy tavsifini bildiradi.

Arxaik so‘zlar. Hozir mavjud bolgan narsa hodisalarning eskirib qolgan nomlari arxaik so‘zlar deyiladi. Arxaik so‘zlar yig‘indisi arxaizmlar deyiladi. Arxaizm - grekcha so‘z bo‘lib, archaios – “qadimgi” degan ma’noni bildiradi.

Eskirgan so‘z ifoda etayotgan narsa-hodisalar hozirgi hayotda bor bolgani uchun eskirgan nomini almashmay oladigan zamonaviy qatlama o‘id soz mavjud boladi. Aslida bir narsaning birdan ortiq nomi bo‘lsa, ulardan til taraqqiyoti qonuniyatlariga javob bera oladigan tilda saqlanib qoladi, javob bera olmaydigani eskilik bo‘yog‘iga ega bolib, ishlatalmay qolib ketadi. Masalan, sekretar - kotib, mirzo, kotiba. Ular ichidan kotib so‘zi hozirgi kunda kishilar tomonidan keng ko‘lamda qollanilyapti. Sekretar so‘zi eskirib, arxaiklashib qolgan. Arxaik so‘zlar so‘zlovchining ko‘z oldida iste’moldan chiqib ketayotgan so‘zlardir revolyutsiya (inqilob), tuman (rayon), viloyat (oblast), baynalmilal (internotsional). Masalan: bitik (kitob), ulus, budun (xalq), omiz (ko‘krak) kabi.

So‘zlar butun holda arxaiklashishi yoki uning biror ma’nosini arxaiklashishi mumkin. Shunga ko‘ra ular:

a) Leksik arxaizmda so‘z eskiradi: gulgun, siymo (obraz).

b) Semantik arxaizmda ma’no eskiradi: chechak - «gul» ma’nosida eskirgan, bekat - karvonlar to‘xtaydigan joy ma’nosida eskirgan, bag‘ir - «jigar» ma’nosida eskirgan, davlat - «boylik» ma’nosida eskirgan.

Arxaiklashish iboralarda ham, grammatic hodisalar doirasida ham yuz beradi. Iboralarning arxaiklashishi holati ko‘p, lekin grammatic hodisalarning arxaiklashishi ham uchraydi: dasti alif-lom qilib, gordonini ham qilib, yoqasini chop etmoq (iboralar); sifatdoshning -din, -mish shakllari, ravishdoshning - bon, -ibon shakllari, -dur - kesimlikni ko‘rsatuvchi bog‘lama eskirgan grammatic shakllardir. Fonetik arxaizmlar ham mavjud bo‘lib, unda tovush eskiradi: sobun, qaboq kabi (sovun, qovoq). Arxaizmlar hozirda mavjud bo‘lgan obyektlar va hodisalarni anglatadi, ammo boshqa iboralar bilan almashtirildi.

Arxaizmlar bir qancha ma’noviy guruhlarga bo‘linadi.

- shaxsning fe’l-atvori - xasis (Boltun, tangpel), slayd (Olim, ekspert), ezma (xushomadgo‘y), suesletetlar (VOLD);

- kasb- skoper (Gimnast), kozikka (chorvadorlar qatori), yog‘och ayol (Yozuvchi), tirik qolmoq



(Payg‘ambarlar Rasul).

-ijtimoiy munosabatlar - sogholnik (Intercomactor), sodrierBnica (qiz do‘sti, hamrohi), sushevnik. (dushman);

-tegishli munosabatlar - singil (opa), aniq, glorik (nisbiy);

- atrofdagi voqelik obyektlari - Selina (a. yashash, bino; Rassewin), sennika (chodir, chodir);

-tabiat hodisalari – o‘q (chaqmoq), talaba (sovuoq, saydir);

Narsalar - separochka (kafedralar, kressasis), server (salfetka), qayishqoq (qobig‘i, qobig‘i, qobiq), ekran (ko‘krak, quti), tik turgan (stend);

Mavhum tushunchalar - adabiyot (notiqlik), ochsond (xulosa), aralashtirmoq (masxara qilish), g‘ildirak (Tanish, do‘stlik).

Istorizmlar (yunoncha historia – o‘tmish voqealar haqidagi hikoya) jamiyat taraqqiyoti natijasida o‘z faoliyatini to‘xtatgan shunday predmet va hodisalarning nomlarini bildiruvchi so‘zlardir. O‘tmishdagi hayot ob’ektlari, eski madaniyat, o‘tmish iqtisodiyoti, eski ijtimoiy-siyosiy munosabatlar bilan bog‘liq narsa va hodisalarni anglatuvchi ko‘plab so‘zlar istorizmga aylandi. Demak, harbiy mavzuga oid so‘zlar orasida ko‘plab istorizmlar mavjud: zanjirli pochta, pischal, visor, redubt. Istorisizmlar qadimgi Rossianing unvonlari, mulklari, lavozimlari, kasb-hunarlarini bildiruvchi ko‘plab so‘zlardir: podshoh, boyar, otliq, piyoda, styuard, zemstvo, serf, er egasi, konstebl, ofenya, otliq, tamirchi, arrachi, chiroqchi, barja tashuvchi; patriarchal hayot hodisalari: korvee, badallar, qisqartirishlar, xaridlar; ishlab chiqarish faoliyati turlari: manufakturna, ot poygasi; yo‘qolgan texnologiyalar turlari: qalaylash, mead tayyorlash.

Eskirgan so‘zlarga misollar:

indus - hatto

lanita - yonoqlar

sarin - to‘polon, olomon

hafta - hafta

yotish - dangasa

Tarixiy va arxaik so‘zlar tahlilini Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asosida ko‘rib chiqamiz. Maqoladagi bir nechta tarixiy va arxaik so‘zlarni tahlil qilamiz.

1. Hukm majlisida bo‘lmaslig‘imni **uhdangizga** olmaysizmi?

**Uhda** (arabcha)-mas’uliyat, javobgarlik, kafililik. Bu yerda **kafililik** ma’nosida kelgan.

2. Zero o‘zining bu o‘tinchini qush uchkan so‘ng otilmoqchi bo‘lgan **sopqon** qabilidan hisoblar va foydasiz bir iltimos deb cho‘chir edi.

**Sopqon-** ichiga tosh solib otiladigan qadimgi soda qurol.

3. Oftob oyimg‘a bu xat muzlik suvgaga sho‘ng‘utib olish ta’sirini bergen va o‘lturagan yerida **sirra bo‘lib** qotib qolq‘an edi.

**Sirra bo‘lmoq-** nima ish qilishini bilmay garang bo‘lmoq, serraymoq

4. Bo‘lmasa charlarni kutmaginda, yugira qol, - dedi O‘zbek oyim, marg‘ilonliqning o‘kchangdan urg‘anligi aniq ekan.

**O‘kcha-** tovon; oyoq kiyimning tovoni ostiga qoqilgan qalin charm; poshna. Bu yerda **qalb** ma’nosida kelgan.

5. Shundog‘ qizimnikiga o‘tkan edim, qix... **alva’ddayn**, deb yo‘l ustidan burilib kirdim... deb puchuq xotin so‘zlanib kelar edi.

**Alva’ddayn-** va’daga vafo qilish, va’fosiz bo‘lmaslik.

6. Kishi Otabekni o‘tquzg‘ach, tokchadan sopollagan bilan **qovuqni** olib chaqmoq surtdi.

**Qovuq-** chaqmoq surtib, uning uchqunidan o‘t yoqish uchun qilinadigan maxsus pilik, pilta.

7. Saodatka bo‘lg‘an muhabbatim bir daraja sizga ma’lum bo‘lg‘anliqdan u kunlardagi **ma’sudiyatimni** ham shu o‘lchavg‘a solib bila olasiz.

**Mas’udiyat** (arabcha) - xursandchilik, quvonchlilik.

8. **Matluqam** Kumushbibiga.

**Matluqa-** taloq qilingan.

9. Kecha biroz **xomsigan** edi, -dedi Karimqul ponsad.

**Xomsimoq-** Shubha qilmoq, shubhalanmoq; ikkilanmoq.

10. O‘ng chog‘liq xotin bo‘lishib **sovutmachoq dasturxon** o‘tirishdi.

**Sovutmachoq dasturxon-** mehmon kelish arafasida mezbonlarning o‘zi uchun tayyorlangan dasturxon

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, arxaik so‘z hozirgi kunga qadar ishlatilib



kelinadigan, ammo uning ishlatishi bir nechta ixtisoslashgan konteksda kamaygan sõzlardir. Maqollardagi arxaizmlar ko‘pincha tilning boshqa qismlariga qaraganda ancha uzoqroq saqlanib qoladi. Arxaizmlar eski adabiyotni o‘rganish orqali saqlanib qolishi mumkinligini bilib olishimiz mumkin. Istiorizm va arxaizmlari o‘z ichiga olgan tarixiy asarlarni badiiy tahlil qilish kitobxonlarni eskirgan so‘zlar bilan yasalgan, ba’zan tushunarsiz bo‘lgan yasalgan so‘zlarni idrok etishda yordam beradi. O‘zbek tili lug‘at boyligiga ularning qay darajada hissa qo‘shiyotganini ko‘rish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Hamroyev, Sh. Yo‘ldoshev “Ona tili darslik”
2. Sh.Yo‘ldosheva, X. G‘ulomova, D.Shodmonqulova, M.Hamroyev “Ona tili darsligi”
3. Internet manbasi <https://conference.org>
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.



**ABDULLA QODIRIYNING “O’TKAN KUNLAR” ASARIDAGI TARIXIY VA ARXAIIK SO‘ZLAR TAHLILI**

**O’roqova Munisa Sirojiddin qizi**  
TerDU O’zbek filologiyasi fakulteti  
2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqlada o’zbek tilidagi tarixiy va arxaik so‘zlar haqida so‘z boradi. Tillarning rivojlanishi bilan uning tarkibida eskirgan so‘zlar ham ko‘payadi. O’zbek tili lug‘at tarkibidagi eskirgan so‘zlarni A.Qodiriyning “O’tgan kunlar” asari talqinida ko‘rib chiqamiz. Shu tariqa o’zbek tilining tarixi qanchalik boy ekanligini bilib olamiz.

**Kalit so‘zlar:** Eskirgan so‘zlar, tarixiy so‘zlar (tarixizmlar), arxaik so‘zlar (arxaizmlar)

**Annotation:** The article discusses historical and archaic words in the Uzbek language. As languages develop, obsolete words also increase in its structure. We will consider the obsolete words in the vocabulary of the Uzbek language in the interpretation of A. Qadiri's work "Bygone Days". This way we will learn how rich the history of the Uzbek language is.

**Key words:** Obsolete words, historical words (historicisms), archaic words (archaisms)

Jamiyat to‘xtovsiz rivojlanib boradi. Yillar o‘tishi bilan mehnat qurollari, kiyim-kechak, uy jihozlarining yangi nusxalari paydo bo‘ladi, esklarining ba’zilari ishlatilmaydigan bo‘lib qoladi, natijada ularni ifodalovchi so‘zlar ham bora-bora juda kam qo‘llanadi yoki iste’moldan chiqib ketadi. Til taraqqiyotining ma’lum bir davrida muomalada faol qo‘llangan, lekin keyinchalik shu so‘z ifodalagan predmet, voqeа yoki hodisa o‘zining hayotiy faoliyatini to‘xtatkach, uni anglatgan so‘z ham eskirsa, qo‘llanish darajasini susaytirib, yo‘qotib, tarixiy so‘zga aylanib qoladi. Tarixiy so‘zlar o‘zi atagan narsa, tushuncha iste’moldan chiqib ketganligi bois qo‘llanmayotgan leksik qatlamadir. O’zbek tilshunosligida eskirgan so‘zlar ikki guruhga bo‘linadi: tarixiy (istorizm) va arxaik (arxaizm) so‘zlar.

Til taraqqiyotining ma’lum bir davrida muomalada faol qo‘llangan, lekin keyinchalik shu so‘z ifodalagan predmet, voqeа yoki hodisa o‘zining hayotiy faoliyatini to‘xtatkach, uni anglatgan so‘z ham eskirsa, qo‘llanish darajasini susaytirib, yo‘qotib, tarixiy so‘zga aylanib qoladi. Demak, tarixiy so‘zlar o‘zi atagan narsa yoki tushuncha iste’moldan chiqib ketganligi bois qo‘llanmayotgan leksik qatlamadir. Bu qatlam har bir davrda jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda yuzaga keladi, kamayib boradi. Istorizmlar leksik, semantik, frazeologik xarakterga ega bo‘ladi. Eskirib iste’moldan chiqqan, o‘z sinonimiga ega bo‘lmagan so‘zlarga leksik istorizmlar deyiladi: omoch, cho‘ri, yuzboshi kabi. Istorizmlar tilning leksik tarkibidan tamoman chiqib ketmaydi, zarur paytda nutqda qo‘llanib turadi, lekin eskirganligi, unutilganligi sababli ma’nosи ko‘pincha izoh talab qiladi.

1. Istorizm (tarixiy so‘zlar) hisoblangan so‘z ham, shu so‘z ifodalagan narsa-hodisa ham hozirgi davrda qo‘llanmaydi: **cho‘ri, kanizak, jallod, zindon, Sovut, parangi**.

2. Arxaizmlar (tarixiy so‘zlar) hozirda mavjud bo‘lgan narsa-hodisalarning eskirgan atamalaridir: **ulus (xalq), lang (cho‘loq), tilmoch (tarjimon), budun (xalq), bitik (kitob), irn (lab), dudoq (lab), meng (xol), eng (yanoq), ilik (qo‘l)**<sup>1</sup>.

Istorizmlar, asosan, so‘z va uning ma’nosи eskirishidan tug‘iladi. Bu to‘liq ma’nodagi istorizm hisoblanadi va **leksik istorizm** deb nomlanadi. Ba’zan so‘z ma’nosiga ko‘ra eskirishi mumkin. Bunda so‘z yangi davrda yangi ma’noda qo‘llanaveradi. Buni **semantik istorizm** deb yuritiladi. Masalan, boy- “feudal sindf vakili” (eski ma’no, istorizm), boy- “badavlat”, “layoqatli”, “serob”, “mo‘l” (yangi ma’no). Arxaizmlar ham nutqda ma’lum maqsadga ko‘ra qo‘llanadi. Ayniqsa, badiiy nutqda arxaizmlarning qo‘llanilishi muayyan uslubiy ahamiyatga ko‘ra amalga oshiriladi. Masalan, zamon shiddatini qilolmay hisob, Yer chizib turibdi yosh bir munajjim (A.Oripov). Misradagi munajjim (astronom) arxaizmmi badiiylikni oshirish maqsadiga ko‘ra qo‘llangan.

Endi tarixiy va arxaik so‘zlarni Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” tarixiy romanida qo‘llangan eskirgan so‘zlar misolida ko‘rib chiqamiz:

*-Bizning bu yaqinlarda bunday kishi yo‘q, ehtimol, nariga dahadadir; dedi va turi boshig ‘a qarab ketdi.*

**DAHA - O‘rtal Osiyo xonliklarida:** qishloq joylarida bir necha qishloqdan, yirik shaharlarda esa

<sup>1</sup> Xolmonova Z. “Tilshunoslikkakirish”-Toshkent 2007.96-bet



bir necha mahalla, mavzedan iborat bo‘lgan mamuriy-hududiy birlik.

-*Qo‘rg‘on burjiga qorovul turish uchun maxsus manora shaklli joy yasalg‘an bo‘lsa ham hozirda navbatchidan xolidir.*

**QO‘RG‘ON**-O‘rtalarda qalin va baland mudofaa devoir bilan o‘rab qurilgan, asosan, bir darvozali shahar-qal‘a.

**BURJ**-Qal‘a devoriga tutashtirib, unga tirkak sifatida tashqi tomonidan minora shaklida qurilgan qo‘shimcha bino.

-*Uchinchi kundan buyoqqa qutidorning eshigi tevaragidan Sodiq ayrilmash edi...*

**QUTIDOR**-Qo‘qon xonligida: oliq-soliqlardan to‘plangan pullarni qabul qilib oluvchi, saqlovchi va xon xazinasiga topshiruvchi saroy amaldori.

*Otam Azizbekning mushoviri va yaqin **musohibi** sanalsa ham va lekin juz’iy ishlardaginadir, buning uchun sizga bir misol keltiray, bu ish shu yaqin oralardag‘ina bo‘ldi:*

**MUSOHIBI**-hamsuhbat, ulfat, suhbatdosh.

**JUZ’IY**-qism, bo‘lakka oid; oz, kam; jiddiy bo‘limgan; ahamiyatsiz.

*Man maviz’ni tamom shar’iy qilib tayyorlayman, tunov kun mahallamizning **oxunlari** ham halollig‘iga fatvo berib ketdilar.*

**OXUN**-O‘qimishli, ilmli kishilar ismiga qo‘shib aytildigan so‘z.

*Qo‘rboshi birinchi eshik yonida turg‘an **yarog‘liq** qorovuldan o‘tib, kichikroq, naqshliq bir uyga kirdi.*

**QO‘RBOSHI**-O‘rtalarda O‘rtalarda Osiyo xonliklari va ayrim Sharq davlatlarida: dastlab shaharni tunda qo‘riqlovchi, mirshab; so‘ngra qurol-yarog‘ ombori (qur) mutasaddisi hamda qurol-aslahu, turli yarog‘lar va to‘p yasash korxonalar (qurxona) boshlig‘i.

**YAROG‘LIQ**-qurolli, qurollangan.

*Qushbegi yozuvga ko‘z yugurtirib ro‘yxatdagi kishilarni darhol keltirishga buyurdi.*

**QUSHBEGI**-Amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng bo‘lgan yirik amaldor; hokim.

*Yusufbek hoji boshliq yer-u ko‘kka sig‘magan muzaffar xalq o‘rda tevaragini qo‘rshab tushdi.*

**O‘RDA**-Turkiy va mo‘g‘il xalqlarida hukmdor, xon qarorgohi, qal‘a.

-*Boshluq orqasidan qochmoqchi bo‘lg‘an qipchoq yigitlariga **munodi**<sup>2</sup> nido qildi.*

**MUNODI**-jarchi.

*Otabek o‘z hayotidagi fojalarning manba‘I bo‘lg‘an bir **habisni** nihoyat birinchi martaba tanib turar edi.*

**HABIS**-dushman, iflos, nopol.

Ko‘rib turganimizdek bu asarda eskirgan so‘zlar juda ko‘plab uchraydi. Biz yuqorida shulardan ayrimlarini aytib o‘tdik. Ulardan daha, o‘rda, munodi, habis, qushbegi, yarog‘liq, qo‘rboshi, oxun, qutidor, burj, qo‘rg‘on, daha kabi so‘zlarni tarixiy so‘zlar (istorizmlar)ga olamiz. Chunki hozirgi kunda bu so‘zlarining hech biri foydalanilmaydi. Shakli ham, ma’nosи ham eskirgan hisoblanadi. Juz’iy, musohibi kabi so‘zlar esa arxaik so‘zlar (arxaizmlar)ga misol qilib olishimiz mumkin. Bu so‘zlarining shakli o‘zgargan bilan hozirgi kunda ma’nosи boshqa so‘zlar bilan ifodalanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tilning lug‘at tarkibi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda doim rivojlanishdadir. Bu har bir tilning ichki zahiralari hamda boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish hisobiga bo‘ladi. Tillarning lug‘at boyliklariga eskirgan so‘zlar ham kiradi. Buni yuqorida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari misolida ko‘rib chiqdik. Tarixn ibilmay turib kelajakni qurib bo‘lmaydi. Buni tillar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Yani tarixiy so‘zlarni bilmay turib boshqa tillardan so‘z olib yo bo‘lmasa ichki boyish orqali shevalardan so‘z olib o‘zbek tilini rivojlantirib bo‘lmaydi, tarixiy so‘zlarni ham o‘rganish kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmonova Z. “Tilshunoslikka kirish”-Toshkent-2007.
2. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”-Toshkent-2019.
3. To‘xliyev N. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”- Davlat ilmiy nashriyoti-2006.
4. Abduazizov A. “Tilshunosliknazariyasigakirish” Toshkent-2010.

<sup>1</sup> MAVIZ-(forscha)-mayizdan tayyorlanangan kayf beruvchi ichimlik; may- “O‘tkan kunlar” A.Qodiriy -Toshkent 2019. NAVRO’Z. 190-bet.

<sup>2</sup> MUNODI-jarchi. A.Qodiriy ” O‘tkan kunlar” Toshkent 2019 Navro’z.



“YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA TARIXIY VA ARXAIIK SO‘ZLAR

Toshboyeva Shahrizoda  
Termiz davlat universiteti  
O‘zbek filologiya fakulteti  
2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Yulduzli tunlar” tarixiy romanida ishtirok etgan tarixiy va arxaik leksemalarning asardagi ma’no mohiyati hamda asardan tashqaridagi ma’nolari haqida gap boradi. Tarixiy so‘zlar va ularning turli ma’nolari lingvistik tahlil qilish asarni mutoala qilishimiz uchun asosiy vosita hisoblanadi. Tarixiy asarlarni o‘qiganimizda hech qanday tushunmovchilik tug‘dirmasligi uchun ko‘mak beradi.

**Kalit so‘zlar:** Tarixiy so‘zlar, arxaik so‘zlar, leksema, ma’no ko‘lamdorligi.

**Annotation:** This article discusses the historical and archaic lexemes involved in the historical novel "Starry Nights" and their meanings outside the work. Linguistic analysis of historical words and their different meanings is the main tool for reading the work. It helps us to avoid any misunderstanding when we read historical works.

**Key words:** Historical words, archaic words, lexeme, scope of meaning.

Vaqt o‘tishi bilan tilda tarixshunoslik paydo bo‘lishining asosiy sababi ajdodlarimizning turmush tarzi urf-odatlarining o‘zgarishi, fan va madaniyat rivojidir. Masalan, yo‘qolib ketgan kiyim turlari armyak, kaftan, kamzullar endi qo‘llanilmay qoldi va bu ularning nomlarini tildan yo‘qolishiga olib keladi. Endi bunday tushunchalarni faqat tarixiy tavsiflarda topish mumkin. Qo‘llanishdan to‘xtagan ko‘plab so‘zlar mavjud bo‘lib, endi ular “istorizm” deb tasniflanadi. Bunday eskirgan so‘zlar vaqt o‘tishi bilan har qanday lug‘at o‘zgarishi, rivojlanishi va boshqa tillar bilan assimlatsiya qilinishi tufayli paydo bo‘lgan. Shunday qilib ba’zi so‘zlar boshqalar bilan almashtiriladi, lekin bir xil ma’noga ega. Bu so‘z boyligining o‘ziga xos bo‘lgan, lekin tildan butunlay yo‘qolmagan qismidir. O‘tmishga oid narsa, hodisalarni ifodalagan, biroq hozirgi kunda tilimizdagи o‘z sinonimiga ega bo‘lmagan so‘zlar tarixiy so‘zlardir. Eskirgan so‘zlar ya’ni arxaizmlar hozirgi kunda mavjud bo‘lmagan narsa va hodisalarning eskirib qolgan nomlaridir. Eskirgan so‘zlarning hozirgi kunda sinonimi mavjud bo‘ladi. Buni esa arxaik so‘zlardagi namunalarim orqali yoritib bera olaman deb ñaylayman. Arxaizm yunonchada qadimgi, kohna degani. Hozirda eskirib, istemoldan chiqib qolgan so‘z yoki ibora. Arxaizm ko‘proq adabiyotda o‘tmish manzarasini aks ettirish, davr manzarasini berishda uslubiy vosita sanaladi. Xoh uzoq o‘tgan tarixga xoh yaqin o‘tmishga nazar tashlab qarasak tilimizda yuz berayotgan leksik o‘zgarishlarni ko‘p marotaba kuzatishimiz mumkin, mana shunday o‘zgarishlarni ko‘p marotaba jkuzatishimiz mumkin. Mana shunday o‘zgarishlar natijasida tilimizda iste’molda bo‘lgan sozlar arxaizmlarga, eskirgan qatlama ga aylanib boradi yoki bu tarixiy so‘zlarga aylanadi. Ushbu maqolada Pirimkul Qodirivning “Yulduzli tunlar” romanida qo‘llanilgan tarixiy so‘zlar orqali yoritib beriladi.

“Buratog”-so‘zi manbalarda Beratog‘deb ham ataladi. Biroq “Oq Burasoy kabi asli “bura” so‘zidan olingan bo‘lishi kerak. Turkiy tillarda nortuyaning eng ulkani “bura” yoki “bug‘ra” deb ataladi. Bu tog‘ chindan ham tekis joyda cho‘k tushib yotgan ulkan nortuyaga o‘xshab ketadi.

“Ulus”-Mo‘g‘ulchadan olingan bo‘lib el, xalq, davlat degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu leksemaning quyidagicha ma’nolari mavjud:

1) XI-XII asrlarda mo‘g‘ullar davlatida ma’lum bir no‘yonga qarashli yerlarda unga tobe holda ko‘chmanchilik bilan hayot kechiruvchi katta kichik oilalar, urug‘lar guruhi.

2) Mo‘g‘ullar istilosi davrida bosib olingan hududlardan Chingizzon farzandlariga bo‘lib berilgan mulklar, keyinchalik mustaqil davlatning nomi: Chig‘atoy ulusi, Ziji ulusi;

3) El, xalq, xaloyiq, odamlar.

Chavgon – (Ozarbayjoncha: chovgon)-otda o‘ynaladigan jamoaviy sport o‘yini; Chavgon so‘zi fors tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “Uch egri tayoq” ma’nosini anglatadi. Qadimgi Sharqda chavgon chorvadorlik o‘yini sifatida paydo bo‘lgan. Keyinroq otliq askarlarning mashg‘ulotiga aylangan. SHarq xalqlari chavgon to‘pini “Qo‘y”, egri tayog‘ini “chavgon” deb ham atalgan. Bu tarixiy qo‘lyozmalarda o‘z ifodasini topgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, chavgon o‘yini aynan boburiylar davrida Hindistonda keng ommalshgan. 1850-yilda Hindistonda xizmat qilayotgan



ingliz otliq askarlarichavgon o‘yiniga qiziqib qolishgan va dastlabki musobaqalarni o‘tkazishgan. 1871-yilda Buyuk Britaniya chavgon (Polo) musobaqasi tashkil qilingan. Shu tariqa chavgon oldin Yevropa, keyin Amerika davlatlariga tarqalgan. 1900, 1904, 1920, 1924 va 1936-yillarda bo‘lgan olimpia o‘yinlari dasturidan ham joy olgan.

“Ilik” - (qo‘l ma’nosini bir)

1. Bu asarda qo‘l ma’nosini bildirgan.

-andijonda ko‘p turmang. Ilikka tushib qolursiz. (P.Qodirov “Yulduzli tunlar”)

2. bolalar suyagi, oyoqning tizzadan to‘piqqacha bo‘lgan qismi. Yana bu oyoq yo iligidan, yo tizzasidan qirqilgan bo‘lsa ham mayli edi...

3. Odamlar hamda qo‘y, mol vas hu kabi hayvonlar oyoqlarining Ichida moysimon modda bo‘luvchi qismi; ana shu qismning pishirilgani.

4. Ilik yuvmoq eski qo‘lyozmalarda aloqani uzmoq, kechmoq.

- *Qolmadi hurmat ahli olamda Olamu olam ahlidin yuvinlik*

“Kadxudo” – Ushbu asarda “Kadxudo” so‘zi “qishloq oqsoqoli ma’nosida kelgan. Kadxudo (fors)

1) dastlab katta oila – kat (... kent) boshlig‘i, keyinchalik qishloq oqsoqoli;

2) Hozirgi Eronda qishloq oqsoqoli;

3) El-yurt ichida so‘zi o‘tadigan gapiga hamma qulqoq soladigan oqsoqol Sardor.

- *Bilmasam, Kadxudo guzarda ishonib aytdi. “Podsho hazratlari yo‘lda erta-indin himoyamizga yetib kelishi aniq!” - dedi.*

“Nadim” – (arab) – do‘st, ulfat) - musulmon davlatlarida, O‘rta Osiyo xonliklarida xonlar, podshoxlar, amaldorlarning eng yaqin xizmatkori, maxrami va maslahatchisi. Bazmlarda ishtirok etgan kishilar ham bir-biriga nisbatan Nadim hisoblangan. Ushbu asarda ham “Nadim” so‘zi quydosh, suhabatdosh ma’nolarida kelgan; Bu yerda uni Navoiyning shogirdi Xondamir va uning eng yaqin nadimlaridan Sohib Dodo kutib turar edilar.

“Tarth” – arabchadan olingan bo‘lib qurilish, imorat, bog‘ning bichimi, loyihasi degan ma’nolarni anglatadi. Asarda ham qurilish uchun tayyorlangan bino ma’nosida qo‘llangan. “Yog‘och ko‘priq ham mulla Fazliddin chizib bergen taribi bo‘yicha qurilgan”.

“Abo” – arab tilidan olingan bo‘lib, choponga kun kiyim ma’nosida qo‘llaniladi. Avrasi jun yoki boshqa matodan tikilgan uzun, keng lekin yengi kalta erkaklar ust kiyimi. “Uning chakmonidan o‘tgan yomg‘ir kalta yenglik abosini ham nam qilgan edi”. “Ozurda” – forschanan olingan bo‘lib, xafa bo‘lgan, ranjigan, xo‘rlangan, quvg‘inga, qayg‘uga botgan, ma’yus degan ma’nolarni anglatadi. “Albatta bu gap shu yerda qolur! Lekin siz ham bizdan ozurda bo‘lmaysiz”.

“Barak” – (chuchvara)

1) Ushbu asarda chuchvara ma’nosida kelgan.

2) Yana bir ma’nosi “uy” ya’ni yog‘ochdan qurilgan vaqtinchalik uy, yashash joyi.

- *Mirzolarning barakni ham sanabdir!*

“Sovri” – ovqat sovib qolmasligi uchun ustiga yopiladigan maxsus idish. “Choshnagir ayol laganni kuyov- kelinning o‘rtasiga qo‘yib, kumush sovrini ochdi”.

“Bek atka” – hali balog‘atga yetmagan mirzolarga homiylik qilish uchun pod-shoh tomonidan tayin etiladigan ma’sul bek.

*Boburning bek atkasi – Mozidbek.*

“O‘zbekxon” – Oltin O‘rda xoni, 1312 – 1342 – yillarda hukmronlik qilgan, uning poytaxti Saroy Berki Volga bo‘yida, hozirgi Volgograd yaqinida bo‘lgan.

“Gustoxona” – fors tilidan olingan bo‘lib, beadab, dadil, qo‘rqmas, degan ma’nolarni anglatadi. Asarda odobsiz, beadab, beandisha, sorbet, betakkalluf degan ma’nolarda qo‘llaniladi.

“Bu taxt-u saltanatlар benom-u nishon yo‘qolur; faqat memor-u musovvirlar yaratgan zot san‘at asarlari tirik qolur, degan gustoxona aqidalari bizga ma’lum”.

“O‘rchin” – hozirgi tuman tushunchasiga to‘g‘ri keladi.

“Unsiya” – Do‘stlik uyi demakdir.

“Masofurush” – ochiq joyda yuzma-yuz urushish.

Xulosa shundan iboratki, tarixiy so‘zlar va ularning turli ma’nolari lingvistik tahlil qilish asarni mutoala qilishimiz uchun asosiy vosita hisoblanadi. Tarixiy asarlarni o‘qiganimizda hech qanday tushunmovchilik tug‘dirmasligi uchun ko‘mak beradi. Mana shu kabi tartibda tarixiy va arxaik so‘zlarning izohli ma’nosini hamda lug‘atini shakllantirish kitobxonlik madaniyatini hamda kitobxonning so‘z boyligini yanada oshirish uchun sababchi bo‘ladi desam mubolag‘a



bo‘lmaydi. Hamda badiiy asarning tayanch vositalari ham tarixiy hamda arxaik so‘zlar sanaladi. Sodir bo‘layotgan voqealarni tarixiy narsa ba’zan shaxslarning kasb-hunari, martabasi ham tarixiy nom, tarixiy so‘zlar asosida yoritib beriladi. Tasvirlanayotgan davr manzarasini keng yoritib berish uchun ham ko‘mak vazifasini bajaradi deb o‘layman.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Rahmonov H, Sodiqov K. “O‘zbek tili tarixi” Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2009-yil
2. Abdurahmonov G‘, Shukurov Sh, Qozoqboyev M. “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”. O‘zbekiston faylafuflari jamiyati. 2008-yil.
3. Tursunov U, O‘rinboyev B, Aliyev A. “O‘zbek adabiy tili tarixi”.



ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON”  
ROMANIDAGI TARIXIY VA ARXAIIK SO‘ZLAR TAHLILI

Ulashova Naima Xusniddin qizi

Termiz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asaridagi tarixiy va arxaik so‘zlarning ma’nolari, o’sha asardagi hamda asardan tashqari ma’nolari, til taraqqiyoti va rivojlanishi haqida yoritilib berilgan. Tarixiy va arxaik so‘zlarning til taraqqiyotidagi tutgan o‘rnini haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** til aloqa vositasi, tarixiy leksemalar, arxaik leksemalar, istorizmlar, arxaizmlar, yangi so‘zlar, eskirga so‘zlar, til rivojlanishi, til taraqqiyoti.

**Annotation:** In this article, the meanings of historical and archaic words in Abdulla Qadiri’s work “Mehrobdan Chayon”, their meanings in and outside the work, language development and development are highlighted. The role of historical and archaic words in language development is considered.

**Key words:** language means of communication, historical lexemes, archaic lexemes, historicisms, archaisms, new words, obsolete words, language development, language development.

Til o‘ziga xos semiologik sistema (ishoralar sistemasi) bo‘lib, jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta’minlovchi, avloddan-avlodga madaniy tarixiy an’analarni yetkazuvchi vosita xizmatini o‘taydi. Til-insoniyatning eng muhim aloqa vositasi. Aloqa boshqa boshqa vositalar bilan ham o‘rnatalishi mumkin: Morze alifbosi, imo-ishora va boshqalar. Masalan, Afrikada uzoq masofaga axborot berish uchun qo‘llanadigan nog‘ara tovushlari, Kanar orollarida ishlataladigan “Xushtak – tili” shular jumlasidandir. Boshqa aloqa vositalari tilga nisbatdan yordamchi, ikkinchi darajalidir. Til va boshqa aloqa vositalarini birlashtiruvchi xususiyatlar mavjud bo‘lib, bular quyidagilar:

- fikr va hissiyotni ifodalashi;
- ijtimoiy, chunki jamiyat tamonidan yaratilib, unga xizmat qilishi;
- moddilik (tovush to‘lqinlari, grafik chizmalar...);
- obyektiv borliqni aks ettirishi.

Albatta bizga ma’lumki, tildagi mavjud so‘z va iboralar majmui tilning lug‘at tarkibi deyiladi. Tilning lug‘at tarkibi doim rivojlanib, boyib boradi. Bu jarayon esa ichki va tashqi manbalarda amalga oshadi. Til lug‘at tarkibidagi so‘zlar zamonaviyligiga ko‘ra ikkiga:

1. Eskirgan so‘zlar. 2. Yangi so‘zlarga bo‘linadi. Bugungi kunda ishlatilmaydigan, iste’moldan chiqib ketgan so‘zlar, eskirgan so‘zlar hisoblanadi. Eskirgan so‘zlar: istorizmlar (tarixiy so‘zlar) va arxaizmlar (eskirgan so‘zlar) ga bo‘linadi. Arxaizm so‘zlarni tahlil qilishda tarixiy kitoblar, asarlar, judda katta, asosiy ro‘l o‘ynaydi.

Arxaizm—deb hozirda mavjud narsa-hodisalarning eskirib qolgan nomlariga aytildi. Arxaizm yunoncha so‘z bo‘lib archaios—“qadimgi” demakdir. Masalan, ulus (xalq), lang (cho‘loq), o‘mir (ko‘krak), riyoziyat (matematika), musallas (uchburchak).

Istorizm—deb eskirgan narsa va hodisalarning eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan tarixiy nomlarga istorizm yoki tarixiy so‘zlar deyiladi. Istorizm yunoncha so‘z bo‘lib “historia”- “tekshirish”, “tadqiqot” demakdir. Masalan, qul, cho‘ri, qulqoq, noib, parvonachi, sardor, jarchi, jallod kabi. O‘zbek tili leksikasida istorizmlarning juda ko‘p guruhlari mavjud. Masalan:

1. Kasb-hunar, mansab, amal, unvon nomlari: sulton, xon, darvesh, amin, zakakotchi.
  2. Maktab, maorifga oid tushunchalarning hamda ba’zi hujjatlarning nomlari: mulla, xalfa, vasiqa, mahzar, vaqf, haftiyak.
  3. Harbiy tushunchalar nomlari: shamshir,sovut, sadoq (o‘qdon), darvoza, navkar.
  4. Oziq-ovqat nomlari: ko‘mach, zog‘ora, bo‘sa, tutmoch (xamirli osh turi), yorma.
  5. O‘lchov va pul birliklari, nomlari: juda, sekin, botmon, tanib, misqol, qadar.
  6. Etnonimlar: Barlos, qipchoq, nayman, qarluq, jaloyir, o‘g‘uz, yag‘ma va boshqalar.
- Eskirgan (arxaik) — so‘zlar deb hozirgi kunda mavjud narsa hodisalarning eskirib qolgan,



tilda sinonimlari faol qo‘llanadigan lug‘aviy birliklarga aytildi. Masalan, oraz (yuz), dudog‘ (lab), xamdasa (geometriya), muarrix (tarixchi), Jayxun (Amudaryo), Sayxun (Sirdaryo), Davom (Farg‘ona), Nasaf (Qarshi), sarxad ( chegara).

Abdulla Qodiriyning mashhur romanidan foydalanamiz. Bunda, romanda keltirilgan bir nechta tarixiy va arxaik so‘zlar misolida tahlil qilamiz.

“*Dalv oyi qattiq qish...*”

DALV (arabcha)- o‘n ikki burjning biri; Jadiy va Hud burjlari o‘rtasida joylashgan; Shamsiy yil hisobida o‘n birinchi oyning arabcha nomi, 21- yanvar - 21- fevral davriga keladi.

“*Xon ayonlarga ruxsat berib, haramga kirgan, o‘rdaning kunduzlik xodimlari tarqalishib faqat kecha beklari, xon soqchilari, doimiy xodimlar qolgan edilar...*”

HARAM (arabcha- man qilingan hudud) - musulmonlarda muqaddas deb hisoblanadi, qon to‘kish qurol olib yurish taqiqlanadigan joy, Kaba atrofi. Musulmon mamlakatlarda hukmdor amaldor boylar xonadonining ayollar yashaydigan qismi. Majoziy ma’noda mazkur xonadon sohibining xotin kanizlari. Haramga xonadon sohibi va o‘g‘illaridan boshqa erkaklarning kirishi man qilingan.

“*Kichkina havoncha boshidag‘i oq tepchinma to‘ppi va qora uzun soqoli uni hindlarning savdogari qiyofatiga qo‘yg‘an edi...*”

HOVONCHA - ro‘zg‘on buyumi. Asosan, quruq, oziq - ovqat mahsulotlari, talqon qilish uchun ishlataladi. Ko‘pincha cho‘yon, alyuminiy va jazdan yasalgan.

“*Maxdum buning evaziga har yil bozorning eng dialog o‘zidan bir gaz ko‘ylak, lozim olib biror yangi guppi bilan yoziliq mursakni bo‘lsa Nigor oyim besh olti yilsiz ko‘rmas edi...*”

MURSAK (arabcha - ziynatlangan, bezatilgan) - avra-astarli uzun yengili, qadimiy ustki kiyim. Bichimi to‘g‘ri bichimi to‘n yoqali, oldi chuqurroq o‘yilgan etak birlari bir biriga kirgan, ikki yontomoninda mayda burmalarga yig‘ilgan. Mursak chetlari jiyanlar bilan xoshiyalangan. 19-asrgacha ayollar uchun ustki kiyim va yoping‘ich vazifasini bajargan, keyinchalik to‘y va azalarda foydalangan. Hozirda ayollarning tobutini ustiga yoping‘ich sifatida ishlataladi.

“*Yana bir necha kishi kelib ashulachi, Shukur so‘fi mezonaga chiqib azon aytdi...*”

MEZONA (arabcha) - minoraning yuqori qismi. Mezona azon aytiladigan joy. Mezona biror bino ustiga qurilishi mumkin.

OTIN - maktabxonada qizlar o‘qtuvchisi din va sharoit bilimdoni. Ko‘pincha ayollaro o‘rtasida diniy marosimlar (masalan: mavlud) ha boshchilik qiladi; Ayollarni xurmatlab ular ismiga qo‘shib aytiladigan so‘z. Masalan: Shakar otin, Zaynab otin.

“*Mingboshi, qushbegi, domla shag‘ovul, janob Shayxulislom, otaliq hazratga ul janob o‘z huzurlaridan joy, mehribonchilik qiladilar!...*”

MINGBOSHI - daxa yoki qishloq oqsoqoli hokimi; qo‘shin boshlig‘i.

QUSHBEGI - amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqiy vazirga teng bo‘lgan xonlik amaldori; hokim.

OTALIQ - Kavkaz xalqlari, keltlar, arablar va boshqalarda badavlat xonadon egalari tomonidan farzandlarini tarbiyalash uchun vassallar yoki xizmatkorlar ham berish. Otaliq “Ota o‘rniga ota” degan ma’noni beradi. Uning vazifasi shahzoda va xonzodalarni tarbiyalash ularni balog‘atga yetgunga qadar boshqaridir.

“*Devonning har ikki xonasiga bir nechadan sandal qo‘yilgan edi...*”

SANDAL - O‘rta Osiyoda, Yaqin Sharq mamlakatlari va Yaponiyada ma’lum bir joyni isitish uchun mo‘ljallangan manqol; Tancha (qish paytida Sandalga oyoq - qo‘l tiqilib isiniladi, ayni paytda ustiga dasturxon yozib undan stol sifatida foydalaniladi); Bo‘yoq va hush bo‘y esfir moylari olishda foydalaniladigan daraxt.

HALFA - o‘rta asrlarda ustaxonalarda hunar o‘rganuvchi shogirt; Eski maktablarda o‘qtivchi yetakchisi, maktabdor domлага dasyor; HALFA - (folkulorda) Xorazm vohasida mahalliy og‘zaki ijod namunalarini ijro etuvchi ayol; To‘y va bazimlarda, aza va marosimlarda xizmat qiluvchi ayollar.

“*Anvar tabriklarga iltifotsiz, oddiy vaziyatda, xong‘a eshtirilishi, arizalarning muhimini ahamiyatsizidan ajratib hudoychiga topshirish...*”

HUDOYCHI udoychi (arabcha - boshqarmoq, yo‘l ko‘rsatmoq) - O‘rta Osiyoda amir yoki xon saroyidagi mansab. Hudoychi ikki darajaga bo‘lingan: “hudoychi dasti rost” va “hudoychi dasti chap”. Ular xonning o‘ng va chap yonlarida turib, saroyidagi marosim va tantanalarni boshqarishgan. Har ikkisi ham boshqa amaldorlardan farq qilish uchun qizil hassa (aso) tutgan.



Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, “Mehrobdan chayon” romanida arabcha, fors-tojik va hozirda eskirgan so‘zlar mahorat bilan ishlatilgan. Asarda ishlatilgan bu so‘zlar XV asr o‘rtalaridagi o‘zbek tili va shu davrning tarixiy ruhini ifoda qilgan deb aytishimiz mumkin. Masalan: xon, saroy og‘alari, kanizak, o‘rda va boshqa ko‘plab hozirda ishlatilmaydigan, tarixiy so‘zlarni aytishimiz mumkin. Davrlar o‘tgan sari yangi tillar paydo bo‘ladi, boshqa bir til esa o‘ladi. Shundan kelib chiqib, so‘zlar tarixiylashadi, o‘z o‘rnini boshqa so‘zga bo‘shatib beradi, ya’ni arxaiklashadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2006
2. Nosirjon Uluqov “Tilshunoslik nazariyasi” Toshkent 2016
3. I.Shoabduraxmonov, M. Asqarova, A.Xojiev, A.Rasulov, X. Doniyorov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent. 1980
4. I.Yo‘ldoshev O‘.Sharipova “Tilshunoslik assoslari” Toshkent. 2007
5. D.Lutfullayeva, R.Davlatova, M.Saparniyozova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent. 2018



## САТИРИЧЕСКАЯ ПОЛЕМИКА «HUDIBRAS» СЭМЬЮЭЛА БАТЛЕРА.

Мухиддинова (Абдулаева) Диляфуз Мансуровна  
- Кокандский Государственный Педагогический Институт,  
Факультет иностранных языков,  
преподаватель кафедры английского языка и литературы.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается Автор Сэмюэл Батлер Худибрас был написан четырехстопным ямбом, закрытыми куплетами, с удивительной женственной рифмовкой. Драматический размер предвещает рассказы о драматических поступках, но тематика и необычные рифмы подрывают его важность. Эта форма стиха теперь упоминается как Hudibrastic. Рассмотрим следующее из начала стихотворения, где гражданская война в Англии

**Ключевые слова:** Полемика, фракция, несанкционированное издание, протекторат, яростный роялист, эпопея, религиозный пыл, Апостольский удар, починки, генеральный парламентарий, вылазки, пленинной аудиторией, святости, доводы рыцаря, нечувствительный к юмору, ложный героический эпос, двусмысленность

Работа представляет собой сатирическую полемику о круглоголовых, пуританах, пресвитерианах и многих других фракциях, участвовавших в гражданской войне в Англии. Работа была начата, согласно титльному листу, во время гражданской войны и опубликована в трех частях в 1663, 1664 и 1678 годах, причем первое издание включало все три части в 1684 году. *Mercurius Aulicus* (ранняя газета того времени) сообщила, что несанкционированное издание первой части уже было напечатано в начале 1662 года.

Опубликованное всего через четыре года после того, как Карл II был восстановлен на престоле и протекторат Оливера Кромвеля полностью закончился, стихотворение нашло благодарную аудиторию. Сатира не сбалансирована, поскольку Батлер был яростным роялистом, и только парламентская сторона подвергается насмешкам. Батлер также использует произведение, чтобы пародировать ужасную поэзию того времени.

В эпопее рассказывается история сэра Гудибраса, странствующего рыцаря, который описан драматично и с хвалебными похвалами, которые настолько густы, что кажутся абсурдными, обнажая тщеславного и высокомерного человека, видимого под ним. Его хвалят за знание логики несмотря на то, что он везде выглядит глупо, но в основном подвергается нападкам его религиозный пыл:

Для его религии это подходило

Чтобы соответствовать его Учению и его Сообразительности:

Это была пресвитерианская правда;

Ибо он был из этой упрямой команды

Заблудших Святых, которых все люди признают

Чтобы быть истинной Воинствующей Церковью:

Такие, которые строят свою Веру на

Священный текст «Щука и ружье»;

Его оруженосец, Ральфо, того же склада, но не претендует на большую ученость, зная все, что нужно знать, из своей религии или «нового света», как он это называет. Батлер высмеивает конкурирующие фракции во времена Протектората постоянными препирательствами этих двух главных персонажей, чьи религиозные взгляды должны их объединять.

Это льстивые, но колючие портреты, и считается, что они представляют личности того времени, но настоящие аналоги сейчас, как и тогда, спорны. «Ключ к Худибрасу», напечатанный с одним из изданий произведения (1709 г.) и приписываемый Роджеру Л'Эстрайнджу, называет сэра Сэмюэля Люка образцом для Худибраса. Конечно, упоминание Мамалюка в стихотворении делает это возможным, хотя Батлер предполагает, что Худибрас родом из Западной страны, что делает кандидатом Генри Розуэлла. Охотник на ведьм Мэтью Хопкинс, Джон Десборо, генеральный парламентарий, и Уильям Прин, юрист, все появляются, а персонаж Сидрофеля по-разному рассматривается как Уильям Лилли или Пол Нил.

**Структура** Батлер явно находится под влиянием Рабле и особенно Дон Кихота



Сервантеса. Но если у Сервантеса благородный рыцарь, хотя и высмеивается, должен вызывать сочувствие читателей, то у Гудибраса ничего, кроме насмешек, не вызывает.

Название происходит от имени рыцаря из «Королевы фей» Эдмунда Спенсера, который описывается как «не столько хороший в делах, сколько великий в имени» и «более огромный по силе, чем мудрый в работе». Спенсер, в свою очередь, вероятно, получил имя от легендарного короля бриттов Руда Худибраса.

Худибрас был написан четырехстопным ямбом, закрытыми куплетами, с удивительной женственной рифмовкой. Драматический размер предвещает рассказы о драматических поступках, но тематика и необычные рифмы подрывают его важность. Эта форма стиха теперь упоминается как Hudibrastic. Рассмотрим следующее из начала стихотворения, где гражданская война в Англии описывается следующим образом:

Когда Евангелист- трубач окружил,  
С участью бегом, в бой звучал,  
И кафедра, барабан Ecclesiastick,  
Били кулаком, а не палкой:  
Тогда сэр Рыцарь покинул жилище,  
И он поехал на полковнике.

Худибрас был чрезвычайно популярным произведением с пиратскими копиями, а поддельная вторая часть была выпущена до того, как Батлер смог выпустить свою настоящую вторую часть в 1664 году. Вольтер высоко оценил его в своих «Письмах об английском языке», в котором говорилось: «Я никогда не находил столько остроумия в одном сингле. книга». Однако один читатель явно не был впечатлен. 26 декабря 1662 года Сэмюэл Пепис записал в своем дневнике, что купил Hudibras, но несмотря на то, что он был чрезвычайно популярен в то время, он признал, что не находит в нем ничего смешного и продал его в тот же день. Два месяца спустя он купил его снова, чтобы попытаться найти то, что ему не хватало. Он по-прежнему не находил в этом ничего смешного из-за того, что считал его обращение с пуританами слишком злобным и нечувствительным к юмору рифм.

Ложный героический эпос и его веселая стихотворная форма, известная как худибрастика, на некоторое время после этого стали стандартом сатиры, и было произведено не менее двадцати семи прямых имитаций. Из самых известных был Нед Уорд и его Hudibras Redivivus с Сэмюэлем Уэсли, отцом Джона Уэсли, подражающим работе.

Спустя полвека после того, как была написана последняя часть, в 1727 году вышло новое издание с гравированными иллюстрациями Уильяма Хогарта, который впоследствии стал одним из выдающихся художников того времени. Работа оставалась популярной в течение нескольких столетий как предостережение от фанатизма в период Гражданской войны в истории Англии, хотя в последнее время она вышла из моды.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар:

1. <https://www.abebooks.com/Hudibras-Samuel-Butler-Richard-Parker/30396452008/bd>



## ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА АРХИТЕКТУРА- ҚУРИЛИШ ТЕРМИНЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС СИНТАКТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Салойдинова Наргиза Шухратовна  
ТАҚИ, “Хориҷий тиллар”кафедраси доц.  
Телефон: +998935540553  
nargiza.shuhratovn@gmail.com

**АННОТАЦИЯ:** Тилшуносликда архитектура ва қурилиш соҳасига доир терминларнинг ўзига хос синтактик хусусиятлари долзарбилигича қолмоқда. Ушбу мақолада АҚ терминларининг ясалиш усуслари ҳақида ёритиб берилади. Инглиз ва ўзбек тилларида синтактик боғламларга ўзига хос таъсир кўрсатувчи услубларларга оид маълумотлар берилади.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Синтактика, сўз ўзлаштириш, синтаксис, терминология, туб ва ясама лексемалар, таҳлил.

Барча тиллар каби ўзбек ва инглиз тилларида ҳам эктралингвистик ва интролингвистик омиллар тил тараққиётининг энг миҳим омиллардан ҳисобланади. Бу каби омиллар тил таркибидаги тушунчаларни у ёки бу тарзда ифодалаш қамровининг янада равнақ топишига ва соҳалар, шу жумладан, архитектура ва қурилиш соҳаси терминологик тизимида ҳам терминларнинг барқарорлашувига олиб келади. Дунё тилларини кузатар эканмиз, қарийб барчасининг луғат сатҳи содда ва қўшма сўзлар билан бойитилади. Эътиборга молик жиҳати шундаки, бу тилларда мустақил маъноли икки ва ундан ортиқ сўзларни бир-бири билан грамматик жиҳатдан боғлаб, янги лексик бирикма ёки мутлақ термин ясаш имконияти вужудга келади. *Синтактика* терминига урғу қаратсан, *синтактика* юонча “syntaktikos” – “тартиб билан тузувчи”, “тартибга солувчи” маъноларини англатиб, тилшунослик соҳасида семиотиканинг турли белги тизимлари *синтаксис* (синтактиканинг яна бир номи)ини, яъни белги бирикмалари тузилишини, бу тизимларнинг шаклланиш ва ўзгариш қоидаларини уларнинг маъноларига ҳамда белги тизимларнинг ҳар қандай вазифаларига қиёсламай ўрганувчи бўлими.

Терминларнинг синтактик жиҳатдан ясалишига кўра, турлича бўлади. А.Ғуломовнинг фикрича: “Сўз ясаш, умуман, қандай усул, қандай восита билан бўлмасин, янги сўз хосил қилишдир”<sup>1</sup>. А.Ҳожиев ҳам шундай фикр билдирган: “Сўз ясаш, қандай усул билан бўлсада, янги сўз хосил қилиш демакдир”<sup>2</sup>. Биз ўз тадқиқотимизда мазкур тилшунос олимларнинг фикрини қўллаб-қувватлаган ҳолда терминларнинг ясалиш услуллари (морфологик, лексик, семантический, синтактик) турли хил эканлигини қайд этишимиз мумкин.

Тил ўзининг ижтимоий вазифасини синтактик қурилма бўлмиш гап ёрдамида амалга оширади. Тил сатҳида лексик бирликларни хосил қилувчи лисоний ҳодисалар, хусусан, фонетик, лексик, морфологик ҳодисалар, айнан, синтактик шаклланишга хизмат қиласди. Шундай экан, ҳар қандай синтактик ҳодисада сўз ва морфологик кўрсаткичларни кузатишимиш мумкин. Демак, синтактик хусусиятларни аниқлашда лексемаларнинг лексик ва морфологик омилларига таянилади. Тилшуносликка доир манбалардан маълумки, муайян соҳанинг батафсил шарҳи туб ва қўшма, ясама лексемалар воситаси билангина ифодалаш имконсиз. Бу жараён табиий равишда сўз бирикмаларидан кенг фойдаланилиш имкониятини тақдим этади. Лекин сўз бирикмалари ҳам турли шаклда учрайди ва яна бир жиҳати бу тилларда мустақил маъноли икки ва ундан ортиқ сўзларни бир-бири билан грамматик жиҳатдан боғлаб, янги термин ясаш имконияти вужудга келади. Мазкур жараён янги хосил бўлган лексик бирликларни барқарорлашувига олиб келади.

Инглиз тилидаги соҳага оид терминологик бирликларни ўзбек тили билан чоғишириш орқали ўрганар эканмиз, бунда ҳар бир терминологик бирликнинг қандай узвлардан таркиб топгани ва қайси усул орқали ясалганига аниқлик киритиши мақсаддига мувофиқ. Шундай экан, инглиз тилида Нюмарк, Ж.Юлль каби олимлар томонидан этироф этилган лексик бирлик ясаш усусларини қуидаги турларга ажратиб ўзбек тили билан чоғиширидик.

<sup>1</sup> Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 256 б.

<sup>2</sup> Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – 168 б.



Баъзи олимлар ўз ишларида синтактик жиҳатдан боғлиниш типларига эътибор қаратган. Таҳлилларимизга кўра, архитектура ва қурилиш соҳаси глобал соҳалардан бири бўлганлиги боис типлар таркибида ўзига боғламлар мавжудлигини кузатдик.

Инглиз ва ўзбек тилларида синтактик боғламларга ўзига хос таъсир кўрсатувчи услуг бу ўзлаштириш усули ҳисобланади. Бир қарашда бу услуг сўзларнинг ясалишида морфологик хусусиятни ёдга солса-да, ундаги синтактик хусусиятни мавжудлиги факт таҳлиллар орқали кўзга ташланади. Инглиз тилида *borrowing* – сўз ўзлаштириши усули лугат бойлигининг кенгайиб, янада бойиб боришида фаол усулардан биридир. Лексик бирликлар инсоният томонидан яратилган тўсик ёки чегараларни билмайди. Улар ўzlари шаклланиши учун қулай муҳит излашади. Уларнинг муҳит билан уйғунлашиши, айнан, синтактик хусусиятлар билан боғлиқ. Бу жараённи айнан *borrowing*лар мисолида кузатишимиш мумкин. Ўзбек тилидаги аксарият адабиётларда мазкур терминнинг ўзлашма сўзлар термини билан бевосита боғлиқ эканлигига дуч келамиз. Б.Брайсоннинг таъкидлашича, инглиз тилидаги кўплаб лексик бирликлар айнан ўзлаштириши усули орқали кириб келган<sup>1</sup>. Куйидаги мисоллар орқали инглиз тили таркибидаги соҳа терминларини кузатишимиш мумкин.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Аъзамов С.М. Инглизча - ўзбекча тўқимачилик ва енгил саноат терминларининг структур-семантик таҳлили: Филол. фан. д-ри (PhD) дисс. Анд., 2020. – 42 б.
2. Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўзбекистон. -Т.: 1995. 7 б.
3. Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – 260 с.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии английского языка. – 3-е изд. – Дубнаб «Феникс», 2005.
5. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 256 б.
6. Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – 168 б.
7. Ж.Юлль
7. Қамбарова М.М. “Архитектура-курилиш терминларининг ривожланиш жараёни ва урганилганлик даражаси” Илм сарчашлари 2021 йил УрДу
8. Закирова Х.А. EPRA international journal of multidisciplinary research “Classification of engineering and construction terminology and ways of their translation” 2021India



ОТРАЖЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ТРАНСПОЗИЦИИ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В  
СОВРЕМЕННЫХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Жумаева Феруза Рузиковна  
Доцент Навоийского государственного  
педагогического института  
Телефон: +998(91)3090611  
feruzaruziyevna6@mail.ru

**Аннотация:** в статье рассматривается проблема транспозиции частей речи. Акцент делается на обобщении подходов формирования соответствующих лингвистических взглядов в трудах узбекских учёных-языковедов. Анализируются работы, посвящённые изучению различных аспектов частеречной транспозиции.

**Ключевые слова:** транспозиция, части речи, лингвистика, переход, классификация.

**Annotation:** The article deals with the problem of transposition of parts of speech. The emphasis is on the generalization of approaches to the formation of the corresponding linguistic views in the works of Uzbek linguists. The works devoted to the study of various aspects of part-speech transposition are analyzed.

**Key words:** transposition, parts of speech, linguistics, transition, classification.

В современном языкоznании проблему транспозиции частей речи исследуют учёные разных направлений и школ: в лингвистике известны различные подходы к истолкованию транспозиции частей речи и выделению её разновидностей. Транспозиция является одним из средств пополнения словарного запаса русского языка, но по сравнению со словообразованием и заимствованием учение о трансформации в области частей речи разработано значительно слабее.

За последние годы, в период независимости, узбекское языкоznание добилось значительных результатов. Самый важный из них – формирование узбекского системного языкоznания и развитие его высокими темпами.

Анализ истории изучения частей речи, а также происхождения лексико-семантических групп слов в языке, парадигматических и синтагматических отношений, их развития и взаимосвязи с категориями мышления, переход на разных языковых уровнях – эти вопросы всегда были в центре внимания современной лингвистики.

Следует отметить, что в 30-е и 90-е годы 20 века, а особенно с момента обретения независимости Узбекистана, было проведено много исследований по изучению разных уровней узбекского языка, проделана большая работа по изучению узбекского языка, раскрыты особенности данного языка. В частности, значительный прогресс достигнут в грамматическом, лексико-семантическом и методологическом изучении частей речи.

Такие учёные, как А.Фитрат, Ю.Турсунов, Ф.Камол, А.Гулямов, Г.Абдурахмонов, Ш.Шоабдуракмонов, А.Ходжиев, Р.Кунгиров, М.Миртозиев, М.Содикова, А.Нурмонов, Х.Нематов, Р.Расулов, Г.Зикриллаев, И.Мадрахимов внесли огромный вклад в классификацию частей речи узбекского языка, раскрытие их основных морфологических, семантических и синтаксических особенностей. Эти лингвисты в своих работах подчеркивают актуальность темы взаимодействия частей речи и необходимость ее углубленного изучения.

Проблемы теории частей речи в узбекской лингвистике, включая развитие и обогащение парадигмы частей речи, взаимодействия и перехода внутри парадигмы, мотивационные основы процесса перехода, интралингвистические и экстралингвистические причины, типы перехода, вопрос о её месте в эволюции серьезно не изучался, и немногочисленные исследования на эту тему в большинстве своем считаются преходящими. [11]

Один из первых начал изучать тему перехода частей речи Гулямов А.К. В опубликованной им в 1954 году статье «К вопросу об адвербиализации в узбекском языке» переход указывается как лексический или морфолого-синтаксический способ словообразования, и утверждается, что этот способ является весьма продуктивным в современном узбекском языке. [3, с. 3-15]

В научных исследованиях З.С. Исокова, А.Е. Ботировой, А.Б. Пардаева, С. Маматкуловой, Я.Д. Эльтазарова, А. Бегматовой, И.И. Расурова и др. рассмотрены разные аспекты проблемы перехода частей речи.



Основные черты адъективации и субстантивации причастий русского и узбекского языков с точки зрения сравнительно типологического анализа рассмотрены в статье А.Бегматовой. По мнению автора, в русском языке субстантивация является одним из основных способов словообразования и по интенсивности не уступает адъективации, а в узбекском языке, наоборот, адъективация является наиболее продуктивным путем словообразования (имеется в виду морфолого-синтаксический способ). [1]

В статье «Субстантивация причастий как морфолого-синтаксический способ словообразования» И.И.Расуловым сделаны следующие выводы: процессу субстантивации подвержены причастия как русского, так и узбекского языков. Причем, переход причастия в существительное может быть полным, при котором меняется его лексическое значение и грамматические свойства, и неполным (окказиональным), при котором качественных изменений не происходит. Закономерность перехода причастия в систему имен существительных обусловливается тем, что причастие-определение употребляется вместо словосочетания типа «определение - определяемое» и рассматривается как имя. [7]

Ж.Д. Эльтазаровым определены и анализированы виды переходов между частями речи в современном узбекском языке и их эмиграционная, а также иммиграционная форма; определен взаимопереход между знаменательными частями речи как трансформационный переход, случаи взаимоперехода между знаменательными, служебными и отдельными категориями частей речи как результат процессов эволюции и семантико-структурной оптимизации языка. [11]

В диссертации Ш.А. Солиходжаевой рассмотрены закономерности и способы конъюнкционализации, т.е. перехода отдельных форм полнозначных слов в разряд служебных слов, в основном предлогов (в таджикском языке) и послелогов (в узбекском языке). [9]

Ботировой А.Е. выполнен функционально-синтаксический анализ первичных и вторичных функций частей речи в узбекском языке. [2]

Помнению А.В. Роденко, именные части речи в русском и узбекском языках самостоятельны, имеют конкретное лексическое и общее грамматическое значение и постоянные морфологические признаки (грамматические значения). Различия в сопоставляемых языках объясняется прежде всего тем, что они относятся к разным языковым группам; носители этих языков отличаются своими традициями, обычаями и менталитетом. Но все же в грамматической структуре русского и узбекского языков наблюдается определенное сходство, ибо сам язык, как социокультурное явление, формируется по общим законам. [8]

Турдиева Р.У. рассмотрела приёмы работы над наречиями в русском и узбекском языках. Автор считает, что содержание и методика работы с наречиями определяются во многом различием в способах выражения наречий в русском и узбекском языках. Здесь имеются как общие, так и отличительные черты, характеризующие наречия в этих двух языках. Сопоставительный анализ наречий показывает, что содержание их в обоих языках совпадает: они выражают признак действия, признак качества и предмета или обстоятельства, при которых протекает действие. [10]

Целью исследования О.Э. Мавлонбердиевой стало рассмотрение в сопоставительном аспекте семантической организации лексико-семантической группы глаголов движения русского и узбекского языков, т.е. микросистем (микрополе) глаголов с семантикой движения в русском языке и их соответствия в узбекском.

Таким образом, анализ исследований, посвященных разработке проблемы транспозиции и классификации частей речи, позволяет сделать следующие выводы: изучение частеречной транспозиции в лингвистике ведется довольно активно. Имеются работы, посвященные изучению транспозиции различных частей речи. Но, несмотря на довольно обширную литературу по транспозиции частей речи в русистике и отдельные изыскания в тюркологии, не представлены все возможные аспекты исследования. Принципиально новым и актуальным является сопоставительное исследование транспозиции частей речи в семантико-деривационном, функционально-стилистическом и лексикографическом аспектах в разноструктурных языках: русском и узбекском. Данные аспекты частеречной транспозиции в русском и узбекском языках будут объектом наших дальнейших исследований.



### Использованная литература

1. Бегматова А. Транспозиционные возможности причастий в русском и узбекском языках. – file:///C:/ 20(1).pdf
2. Ботирова А.Е. Функционально-синтаксический анализ первичных и вторичных функций частей речи в узбекском языке: Диссерт. канд. филол. наук. – Карши, 2018. - 142 с.
3. Гулямов А.К. К вопросу об адвербиализации в узбекском языке // Учёные записки ТашГПИ им. Низами. Филологический сборник. Вып.2. – Ташкент: Госучпедгиз, 1954. – С. 3-15
4. Жумаева, Ф. Р. Типы транспозиции частей речи в современном русском языке / Ф. Р. Жумаева. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2021. - №47 (389). - С. 468-472. - URL: <https://moluch.ru/archive/389/85522/>
5. Исоков З.С. Взаимосвязь частей речи в узбекском языке и место частиц в нем: Диссерт. канд. филол. наук. – Фергана, 2005. - 136 с.
6. Пардаев А.Б. Роль и лингвопрагматика служебных частей речи узбекского языка в лингвистической системе: Диссерт. док. филол. наук. – Ташкент, 2017. - 312 с.
7. Расулов И.И. Субстантивация причастий как морфолого-синтаксический способ словообразования. – International Journal of Research Available at <https://edupediapublications.org/journals> p-ISSN: 2348-6848 e-ISSN: 2348-795X Volume 07 Issue 05 May 2020.
8. Роденко А. В. Сопоставительный анализ именных частей речи русского и узбекского языков // Славянские языки: системно-описательный и социокультурный аспекты исследования : сб. науч. тр. : в 2 ч. / редкол. : Л. А. Годуйко [и др.] ; под общ. ред. О. Б. Переход. – Брест : БрГУ, 2014.- Ч. 1. - 288 с.
9. Солиходжаева Ш.А. Конъюнкционализация полнозначных слов в служебные слова в таджикском и узбекском языках. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Душанбе, 2021. - 42 с.
10. Турдиева Р. У. О некоторых приёмах работы над наречиями в русском и узбекском языках / Р. У. Турдиева. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – № 9 (113). – С. 1293-1294. – URL: <https://moluch.ru/archive/113/29108/> (дата обращения: 15.09.2021).
11. Эльтазаров Ж.Д. Взаимосвязь и переход частей речи в узбекском языке: Автореф. дис. док. филол. наук. – Самарканд, 2005. - 50 с.



“О‘TKAN KUNLAR” ASARIDA IFODALANGAN ESKIRGAN SO‘ZLARNING  
LINGVISTIK TAHLILI

**Botirova Maxliyo**

TerDU O‘zbek tilshunosligi  
kafedrasi o‘qituvchisi

**Raxmonjonova Guljahon**

TerDU O‘zbek filologiyasi fakulteti  
2-bosqich 721-guruh talabasi

**Abstract:** The article talks about historical and archaic words studied in Uzbek linguistics. Scientists say that the number of words in our language is more than 120 thousand. Of course, it is impossible to fully cover all words in explanatory, spelling and etymological dictionaries. Because folk dialects have words that reflect recent and distant historical events, i.e. obsolete words. This article provides information about obsolete words taken from the fragment "Majburiyat" in "Otkan Kunlar" by Abdulla Qadiri.

**Key words:** lexeme, etymology, historicisms, archaisms

Til taraqqiyotining ma'lum bir davrida muomalada faol qo'llangan, lekin keyinchalik shu so'z ifodalagan predmet, voqeа yoki hodisa o'zining hayotiy faoliyatini to'xtatgach, uni anglatgan so'z ham eskirsa, qo'llanish darajasini susaytirib, yo'qotib, tarixiy so'zga aylanib qoladi. Demak, tarixiy so'zlar o'zi atagan narsa yoki tushuncha iste'moldan chiqib ketganligi bois qo'llanmayotgan leksik qatlampadir. Bu qatlam har bir davrda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga keladi, kamayib boradi. Istorizmlar leksik, semantik, frazeologik xarakterga ega bo'ladi. Eskirib iste'moldan chiqqan, o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlarga leksik istorizmlar deyiladi: omoch, cho'ri, yuzboshi kabi. Istorizmlar tilning leksik tarkibidan tamoman chiqib ketmaydi, zarur paytda nutqda qo'llanib turadi, lekin eskirganligi, unutilganligi sababli ma'nosi ko'pincha izoh talab qiladi. Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarkibidagi batrak, amin, vasiqa, vaqarnoma, mudarris, charx, kansava, tanob, choriq, qulqo kabi so'zlar tarixiy so'zlar – leksik istorizmlardir

**Istorizmlar** - o'tmishga, tarixga xos bo'lgan narsa, hodisa, tushunchalarni anglatib, tarixiy matnlarda ishlataladi. Zamonaviy tilda ularning o'rnnini bosadigan sinonim so'zlar ham, ularga ehtiyoj ham yo'q. Masalan: jallod, yasovul va b.

**Arxaizm** (yunoncha: archaios – qadimgi, ko'xna) – eskirib, iste'moldan chiqib qolgan so'z yoki ibora. Leksik (arkon, mirzo va hokazo), fonetik (ersa, birlan, emdi va hokazo), morfologik (bilur, turur, bo'lgay, burung'i va hokazo), shuningdek frazeologik, semantik arxaizmlar bo'ladi. Arxaizmlar ko'proq adabiyotda o'tmish manzarasini aks ettirish, davr ruhini berishda uslubiy vosita sifatida qo'llaniladi.

**Sipoh** – bu so'z ot so'z turkumiga mansub. O'zbek tiliga Tojik shakli olingan va “lashkar”, “xon”, “amir” saroyda uzoq xizmat qilgan lavozimli kishi ya'ni amaldor degan ma'noni anglatadi. Hozirgi o'zbek tilida bu so'z shaxmat o'yinidagi piyodadan katta bo'lgan (fil, rux, frazin) donalarini sipoh so'zi bilan ataladi. Misol uchun : Bir piyodaga bir sipohni qurban qilindi.<sup>1</sup> Asardagi parchada “Qo'qon sipohi tomonidan Toshkand o'raldi” tarzida berilgan ya'ni Qo'qon xoni tomonidan o'ralganini anglatadi.

**Qo'shbegi**-tarixiy atama; 1) qo'sh, ya'ni harbiy qarorgoh va lagerning boshlig'i; 2) Buxoro amirli-gitsa mang'itlar sulolasи davrida bosh vazir, amirdan keyingi oliv mansab. Qo'shbegiga barcha viloyatlar va bekliklarning hokimlari, beklari bo'ysungan hamda amirning poytaxtda bo'lmagan paytida u amirlikning barcha ishlarini boshqargan. Shuningdek, qo'shbegi Buxoro atrofidagi 11 ta tumanni (hozirgi Buxoro viloyatini) amir nomidan idora qilgan.<sup>2</sup> Parchada “Normuhammad qo'shbegi yaralangan” ya'ni bosh vazir yaralanganini ta'kidlab o'tgan. Hozirgida o'zbek tilshunosligida bu so'z o'rnda bosh vazir “so'zi ishlatib kelinmoqda.

**Hujra**-an'anaviy o'zbek me'morligidagi eng kichik xona, bir yoki bir necha kishiga mo'ljallangan yotoqxona. Jamoat binolarida (madrasa, masjid, maqbara va boshqa ziyoratgohlar), turar joylarning

<sup>1</sup> Raxmatillayev Sh., O'zbek tilining etimologik lug'ati 3-jild (forscha va tojikcha birliklar va ular bilan hosililar). Toshkent. “Universitet”, 2009.

<sup>2</sup> Vohidov Sh.. Qo'qon xonligi va buxoro amirligida unvon va mansablar, T., 1996.



tashqari qismida qurilgan. Yirik inshootlarda (madrasa va boshqalar) bosh peshtoq yon tomonlaridan boshlab hovlini o‘rab quriladigan mujassamot keng tarqalgan, bunday inshootlardagi hujralar ko‘pincha bir xil hajmda bo‘ladi, ba’zan burchak hujralar bir muncha kattaroq bo‘lib, ulardan darsxona sifatida foydalanilgan.<sup>1</sup> “Xatto ba’zi kunlar hujrasidan tashqariga chiqmas...,” asardagi bu parchada xona ma’nosida ishlatilgan. Hujra so‘zi hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanilmaydi.

Maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi “Majburiyat” parchasidan olingan eskirgan so‘zlarning ayrimlaridan misollar keltirib, ularni tahlilga tortamiz:

**Ola-chalpoq** - daraxt barglari oralab tushgan parcha-parcha oftob, oydin yoki ko‘lanka. U yer bu yerda , parcha-purcha degan ma’nolari bor<sup>2</sup> “... aksincha ola-chalpoq qor pag‘alarini bosishdan...” ya’ni u yer bu yerga yog‘gan qorlarni nazarda tutyapti.

**Tancha** – (sandal)mahalliy isitish vositasi<sup>3</sup>. Qadimdan O‘rta Osiyoda, Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Yaponiya va boshqa Sharq mamlakatlari ishlatilib kelingan. Shuning uchun xonaning bir chetiga chuqurcha kazilib, ichi maxsus shaklda ishlanib, suvaladi. Unga kursi (xontaxta) o‘rnatilib, usti ko‘rpa bilan yopiladi. Ko‘mir yoki saksovul cho‘g‘i bilan isitiladi.<sup>4</sup> Asarda “Tancha tevaragiga o‘lturishdilar.” sandal sifatida foydalanishgan. Zamonaviy isitish vositalari tufayli sandalga ehtiyoj qolmayapti.

**Mullanamo** - bu sifat “o‘qimishli kishi” ma’nosini anglatadigan (arabcha - mullo otiga “o‘xshash qilib ko‘rsat”) ma’nosini anglatadigan tojikcha “namudan” fe’lining “namo” hozirgi zamon asosini qo‘shib xosil qilingan. O‘zbek tiliga l tovushidan keyingi o(ä) tovushini a tovushiga almashtirib olingan; “tashqi qiyofasi o‘qimishli kishiga o‘xshab ketadigan” ma’nosini anglatadi.<sup>5</sup>

**Bachcha** - bu ot o‘zbek tilida 1) “bola” ma’nosini anglatadigan tojikcha bacha oti tarkibidagi ch tovushini qatlab hosil qilingan bo‘lib, “xushro‘y, kelishgan o‘yinchibola” ma’nosini anglatadi. odam bolasi;2)Birovning (akavachchasining) qa-ramog‘ida va ixtiyorida bo‘lgan xushro‘y, kelishgan o‘yinchibola, besoqol, 3)Umuman o‘yinchibola, raqqos. Nog‘orachining bachchasi. Misol uchun:O‘rtada o‘n olti-o‘n yetti yashar bachcha o‘ynaydi.<sup>6</sup>

**Qutidor** – bu so‘zga alohida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak bu so‘zning ma’nosini quti so‘ziga uzviy bog‘liqdir chunki quti so‘zi o‘zbekcha so‘z ya’ni taxta yoki yog‘och yoki shunga o‘xshash narsalardan tayyorlangan ichiga turli xildagi qimmatbaho narsalar solinadigan sandiqsimon dish quti deyiladi. Demak mana shu so‘zga forscha-tojikcha -dor qo‘shimchasi qo‘shilsa “qutidor” ya’ni qutisi bor (adam ) so‘zi yasaladi. Ammo davrlar o‘tishi bilan bu so‘z sarmoyador, mulkdor insonlarga nisbatan qo‘llanilgan. Aynan asarda ham boy kimsaga nisbatan qo‘llanilgan. Hozirgi kunda qutidor so‘zi bankchi, bank egasi degan so‘zlarning ma’nosiga yaqin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, til xalq tarixining ajralmas qismi bo‘lganligi uchun bu tilda qo‘llanilgan so‘zlar tarixiy ahamiyatga ega. Qadimgi so‘zlar va ularning ma’nosini ma’lum bir davrda odamlar hayotida qanday voqealar sodir bo‘lganligi haqida aytib berishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.m.wikipedia.org>
2. Raxmatillayev Sh., O‘zbek tilining etimologik lug‘ati 3-jild (forscha va tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). Toshkent. “Universitet”, 2009.
3. Vohidov Sh.. Qo‘qon xonligi va buxoro amirligida unvon va mansablar, T., 1996.3 Jumanazar A.. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. Toshkent: Akademnashr, 2017 -53-54 betlar.
4. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 3-jildi “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
6. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, (2000-2005-yillardar)
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 ortiq so‘z va so‘z birikmasi. A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.

<sup>1</sup> Jumanazar A.. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. Toshkent: Akademnashr, 2017 -53-54 betlar.

<sup>2</sup> O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>3</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 3-jildi “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.

<sup>4</sup> O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, (2000-2005-yillardar)

<sup>5</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 ortiq so‘z va so‘z birikmasi. A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.

<sup>6</sup> Oybek. Tanlangan asarlar.



## TIL-KELAJAK BUNYODKORI

**Alisherova Sohibaxon, Nomonova Dilnoza**

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti  
o‘zbek tili yo‘nalishi 21.76- guruh talabalari

**Annotatsiya:** Har qanday xalqning mavjudligi uning tili bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, dunyodagi turli millat va elatlar bir-biridan nafaqat zohiriyligi siyoshi bilan balki tili bilan ham ajralib turadi.

**Kalit so‘z va iboralar:** til, jamiyat , sivilatsiya , tilshunos , tarix

Til. Qarang, naqadar jarangdor va ohangrabo Ushbu so‘z o‘n sakkiz ming olamni larzaga keltiradigan so‘zlardan biridir. Bu bizga chaqaloqligimizdan ona allasi, ona mehri bilan qon-qonimizga singigan iliq tuyg‘udir. Til-millatning ruhi, o‘tmishi, buguni va kelajagini chambarchas bog‘lab turadigan asosiy vosita. Tilsiz millatning rivojlanishini tasavvur etib bo‘lmaydi. Bejizga ota-bobolarimiz: "Tarixiy xotirasiz- kelajak yo‘q", -deyishmagan. Tarix tilsimlarini ochadigan eng asosiy qulf bu tildir. Tilini yuksaltirgan yurt, albatta, har bir sohada, xoh u itjimoiy soha bo‘lsin, xoh iqtisodiyot yuksalaveradi.

O‘zbek tili haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, dastlab turkiy til, keyinchalik chig‘atoymas, sart tili nomlari bilan yuritilgan. Turkiy til tog‘risidagi ilk manbaa sifatida XI asarda yashab, ijod etgan qomusiy olim Mahmud Koshg‘ariyning "Devoni lug‘otit turk" asari e‘tirof etiladi. Bu asarda turkiy tilimizning boshqa tillardan farqi aniq isbotlar bilan keltirib o‘tilgan.

Bir necha yuz yil mobaynida turli forsiy davlatlarning yurtimizga bostirib kelishi natijasida XIII-XIV asrlarda turk tilining nufuzi tushib, forsiy til butun millat tiliga aylanib qoladi. Hatto turkiy tili so‘zlashuv uchun ham yaroqsiz deb hisoblay boshlashadi. Ammo butun bo‘xtonlarga qarshi chiqib, Alisher Navoiy bobomiz o‘zlarining "Muhokamat ul-lug‘atayn" asarlari orqali turkiy tilning forsiy tildan qolishmasligini va aksincha turk tildagi ba‘zi so‘zlarning fors tilida ma‘nodoshi yo‘qligini ko‘rsatib berdilar. Forsiy tilda bitilgan buyuk "Xamsa" ning turkiy tilda ham yozish mumkinligini, go‘zal satrlar orqali isbotlab berdilar. Shundan so‘ng, turkiy tilga e‘tibor kuchayib, shoirlar ham o‘z asarlarini turkiy tilda yoza boshladilar.

Rossiya iste'lolariga qadar tilimizga putur yetmay saqlanib kelinayotgan edi. Ammo mamlakatimiz mustamlaka bo‘lganidan so‘ng, har sohada cheklovlari, to‘siqlari, qiyinchiliklarga duchor bo‘lishni boshlandi. Madaniy jihatdan ham ma‘naviy jihatdan ham. Hatto o‘z tilimizda ham erkin suhabatlasha olmas edik. Barcha asarlar (qanday mavzuda bo‘lmasin), rus tilida yozilar edi. Aholi onggiga tiliga nisbatan hurmatsizlikni singdirish maqsadida, hatto Amir Temurdek buyuk shaxslarni ham qaroqchiga chiqarishgan, Alisher Navoiydek buyuk bobolarimiz xotirasiga putur yetkazishgan. Lekin o‘sha davrda ham ziyoralar bu fikrlarga qarshi chiqishgan. Masalan, jadidechilarimizdan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining til tog‘risidagi maqolalaridan birida, chig‘atoymas tilini Alisher Navoiy asarlarini o‘qib o‘rganish mumkinligini aytib o‘tadi. Afsuski, sho‘ro davrida bunday ziyoralar hotirjam yurishmagan. Balking ularga turli qarshiliklar bo‘lib turgan. Chunki ziyoralar oddiy xalqni ham ma‘naviyatlari qilishlaridan qo‘rqanlar.

Shuncha to‘siqlarga qaramay, tilimiz o‘z jilosini yo‘qotmay saqlanib keldi va 1989-yili davlat tili maqomiga ega bo‘ldi. Shundan so‘ng barcha hujjalalar o‘zbek tilida yuritiladigan bo‘ldi. Keyinchalik 1991-yili mustaqilligimizga erishganimizdan so‘ng, bu qonunga amal qilinishi yanada mustahkamlandi. Shu ikki yutug‘ ya‘ni, mustaqillik sharofati va davlar tili maqomi tilimizni yanada yuksalishiga xizmat qildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarix zarvaraqlari qaytadan bitildi, nomi toptalganlar oqlandi, barcha adabiyotlar o‘z tilimizda yuritila boshlandi. Bularning barchasi nafaqat bizning ,balki butun o‘zbek xalqining eng katta yutug‘i bo‘ldi deya olamiz. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, buyuk kelajagimizni qurishimiz uchun ,avvaolo ,qalbimizni, keyin esa tilimizni har xil qusurlardan ehtiyyotlab, saqlashimiz kerak ekan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak , har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni mustaqillikka bo‘lgan e‘tibor deb davlat tiliga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz , shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozimligini butun vujudimiz bilan his qilishimiz lozim. Bunday Vatanparvar harakatni barchamiz o‘zimizdan o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz bilanoq o‘zbek tilini rivojlanishiga bevosita ulkan hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

Zero, buyuk ma‘rifatparvar bobomiz A. Avloniy yozganidek : " Har bir millatning dunyoda



borligini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti tili va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir.

**Foydanilgan adabiyotlar**

1. Mahmud Koshg'ariy " Devonli lug'otit turk"
2. Alisher Navoiy " Muhokamat ul - lug'atayn "



**SOTSIOLINGVISTIKADA ICHKI VA TASHQI TIL SIYOSATI. O’ZBEK TILI MISOLIDA**

**To’xliyeva Madina Soatmurot qizi**

O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Surxondaryo akademik litseyi ona tili va adabiyot o’qituvchisi,  
Termiz davlat universiteti lingvistika (o’zbek tili)  
II bosqich magistranti  
+99899 757 29 87

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada sotsiolingvistikada ichki va tashqi til siyosati O’zbek tili misolida yoritib berildi. Til siyosati bo'yicha O'zbekistonda qilingan islohotlar.

**KALIT SO’ZLAR**

Sotsiolingvistika, til siyosati tushunchasi, ichki til siyosati va tashqi til siyosati, qonun va farmonlar.

Sotsiolingvistika bu tilni va uning yaratilishidagi ijtimoiy va madaniy sharoit bilan bog’liq bo’lgan aloqalarini o’rganuvchi fan sanaladi. Kishilar o’rtasidagi aloqani ta’minlash til ijtimoiyligining birinchi va zaruriy sharti bo’lib, tilshunoslikning barcha davrlarida tilning bu maqomi e’tirof etilgan. Ammo tilning ijtimoiy tabiatni, “sotsial xoslanganligi uning qabila, xalq, millat tarixini, umuman, insoniyat o’tmishini o’zida saqlashida ham ko’rinadi”. Jamiyat a’zolarining tilga munosabati, tildan qanday foydalanishi, jamiyatdagi o’zgarishlarning tilga ta’siri ham til ijtimoiyligidan begona emas. O’zbek tili tarixiy taraqqiyotida o’zi mansub jamiyatning faol ta’sirida bo’lgan, o’zbek turmushidagi o’zgarishlar, mentalitetiga ta’sirlar tilda o’z izini qoldirgan. Masalan, arab xalifaligi va islom ta’sirida arabcha birliklar o’zlashgan, o’zlashtirilgan. Yoki mo’g’ul hukmronligi mo’g’ulcha til unsurlari kirib kelishiga zamin bo’lgan. Jadidchilik harakatining yoyilishi bilan arabiyo o’zlashmalarni turkchalashtirishga ham kirishilgan. Ayniqsa, sobiq ittifoq davrida ming-minglab so‘zlar rus tilidan yoki uning vositachiligidida boshqa tillardan o’zlashtirilgan, chet so‘zlarni olishning muayyan modellari qabul qilingan. Buni birgina -iya, -siya qo’shimchasi bilan tugaydigan so‘zlar misolida ko’rish mumkin. Istiqlolga erishganimizdan so’ng o’zbek tili rivojining yangi imkonlari ochildi, ko’plab eskirgan so‘zlarning qayta faollashuvi ta’mindandi. Globallashuv davri esa ko’plab tillar qatori o’zbek tilini ham xalqaro tillarning faol ta’siriga uchratmoqda.

O’zbek sotsiolingvistikasi ana shunday ta’sirlashuvlarni xolis baholashi, milliy til va davlat tili manfaati nuqtayi nazaridan ish ko’rishi lozim bo’ladi. Xullas, til va jamiyat o’rtasida doimiy ta’sirlashuv kechadi. Fan va ta’lim, madaniyat va san’at, texnika va davlatchilikning taraqqiyoti til va jamiyat ta’sirlashuvining asosiy omillaridir. Bunday ta’sirlashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchi, albatta, inson va u mansub jamiyat.

Sotsiolingvistikada til siyosati tushunchasi mavjud bo’lib, u ma’lum bir davlat, ijtimoiy guruh yoki tabaqa vzakillarining mavjud tillar yoki til osti tizimlarini o’zgartirish yoki saqlab qolishga qaratilgan tadbirlar majmuyi hisoblanadi. Shunga ko’ra, til siyosati ikki yo’nalish asosida ish ko’radi:

1. Ichki til siyosati;
2. Tashqi til siyosati.

Ma’lumki, har bir mustaqil davlatda o’z milliy tilini yoki muayyan bir tilni rivojlantirishga bir qator chora-tadbirlar olib boriladi. Ayni shu harakatga nisbatan biz ichki til siyosati atamasini ishlatar ekanmiz.

O’zbekistonda ham ichki til siyosati Milliy uyg’onish davridan buyon ildiz otib boshlagan. Mustaqillikni qo’ga kiritishimizga birinchi qadam ham aynan til siyosati bilan bogliqdir. Chunonchi, 1989-yil 21-oktabrda O’zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi fikrimizning isbotidir. O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimov: “O’zlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o’rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog’liqlik til orqali namoyon bo’ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu – millatning ruhidir” deya o’zbek tiliga yuksak baho beradi va tilning ichki siyosatida bir qator ishlar bajarilishiga yo’l ochdi. Jumladan, Mustaqillikdan keyingi



davrlarda ichki til siyosatiga doir qator islohotlar amalga oshirildi. 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosini joriy etish to’g’risida”gi Qonun qabul qilinishi, 1995-yil 24-avgustda esa O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “O’zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlanishi, 1995-yili “Davlat tili to’g’risida”gi Qonunning yangi tahrirda chiqishi hamda 1997-yil “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi fikrimizning yorqin dalilidir. Hozirgi kunda ham mamlakatimizda ichki til siyosati jadal olib borilmoqda. Tilshunos olimlarimiz tomonidan ko’plab ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqilishi natijasida o’zbek tili yildan yilga sayqallanib bormoqda desak mubolag’ a bo’lmaydi.

O’zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro’-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o’sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to’laqonli joriy etishni ta’minalash, O’zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o’zbek tilini o’rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o’zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo’nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, shuningdek O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5850-son farmoni tasdiqlandi.

Tashqi til siyosati mamlakat tashqi siyosatining bir bo’lagi bo’lib, bu siyosat orqali davlat tilini jahon miqyosida keng ko’lamda yoyishga xizmat qiladi. O’zekistonda ham tashqi til siyosatiga oid ko’plab islohotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda o’zbek tilining Aqsh, Angliya, Germaniya, Turkiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Afg’oniston, Qirg’iziston, Qozog’iston, Tojikiston va Turkmanistonda o’qitilatoygani, bu davlatlarda o’zbek tilini o’rganuvchilar va o’zbek tilida so’zlashuvchilar sonining ortib borayotgani, o’zbek tilining korpus lingvistikasi ishlab chiqilayotgani, umuman olganda, o’zbek tilini dunyo miqyosida keng yoyishga urinishlar, dunyo tillari qatoriga qo’shish uchun qilinayotgan barcha targ’ibotlar sotsiolingvistik jihatdan tashqi til siyosatining rolini oshirishga xizmat qiladi. O’zbekistonda o’zbek tilini rivojlantirish sohasidagi davlat siyosati Indoneziya ommaviy axboroti vositalari e’tiboriga tushishi tashqi til siyosatimizning yana bir kata yutuqlaridan biridir.

Maqolada, Markaziy Osiyodagi Afg’oniston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg’iziston va Qozog’iston bilan chegaradosh bo’lgan O’zbekiston o’zining madaniyati, boy tarixi bilan ajralib turishi qayd etiladi.

Muallifning yozishicha, dunyo bo’ylab 50 millionga yaqin odam o’zbek tilida so’zlashadi. 2020-yil 21-oktyabr kuni ilk bor «O’zbek tili bayrami» mamlakat miqyosida keng nishonlandi. Davlat rahbarining 2019-yil 21-oktyabrdagi «O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi farmoniga muvofiq, hukumat o’zbek tilini yanada rivojlantirish bo’yicha aniq chora-tadbirlarni ko’rmoqda. Shu bilan birga, 2020-2030-yillarda o’zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash belgilangan. Unga ko’ra, chet el fuqarolari uchun o’zbek tilini o’qitish dasturlarini yaratish, chet el muassasalari va universitetlarida o’zbek tili markazlarini tashkil etish va kengaytirish, o’zbek tilidan dunyoning yetakchi tillariga va chet tillaridan o’zbek tiliga tarjima qilish uchun kompyuter dasturini yaratish kabi qator vazifalar amalga oshiriladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Usmonova, N. Bekmuhammedova, G. Iskandarova. Sotsiolingvistika. O’quv qo’llanma. Toshkent. 2014
2. I.Xudoynazarov. Sotsiolingvistika. Qarshi. 2008
3. R.Madiyeva. Til va jamiyatning o’zaro munosabati. Fan. 2020
4. Fishman.J.A. Ijtimoiy tilshunoslik. Qisqacha kirish. Rouli. Mass, Nyuberi uyi. 1971
5. Fasold. R, Humberto. Sotsiolingvistika. Tahririyat Gredos. Madrid. Ispaniya.
6. Lex.uz
7. Ziyo.net
8. Internet saytlari



## TIL SOTSILOGIYASI VA SOTSIOLINGVISTIKA

Nurboyeva Gulshan Ibragim qizi

TerDU Lingvistika: o’zbek tili II-bosqich magistranti

Tel:99-258-31-81

Gulshannurboyeva94@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda til sotsiologiyasi va sotsiolingvistika terminlarining sinonim o‘rni haqida fikr yuritilgan .

**Kalit so‘zlar:** Sotsiolinvistikka, til sotsiolingvistikasi, psixologiya, jamiyat, antropologlar , kommunikatsiya

Tilning ijtimoiy turli-tumanligi haqidagi dastlabki fikrlar XVII asrning boshlarida vujudga kelgan edi. Jumladan, Ispaniya Salaman universiteti professori Gonsalo de Korreas tilning ijtimoiy turli-tumanligi xususida shunday yozgan: “Tilda viloyatlardagi dialektlardan tashqari, mazkur viloyatlarda yashovchilarning yoshi, mavqeyi, mol-mulki bilan bog‘liq ayrim shakllar ham mavjud bo‘ladi. Bular: qishloq aholisi, avom xalq, shaharliklar, zodagonlar, saroy ahli, tarixchi olimlar, din arboblari, qariyalar, erkaklar, ayollar va hatto, bolalarning tillaridir”<sup>1</sup>. “Sotsiolingvistikka” termini fanga birinchi marta 1952-yilda amerikalik sotsiolog G.Karri (Currie 1952) tomonidan kiritildi. J.A.Fishmanning “Til jamiyatidagi ma’ruzalar” (“Readings in the Society of Language”) nomli to‘plamiga kirgan 50-yillarning lingvistlari, sotsiologlari, madaniyat antropologlari, dialektologlari va kommunikatsiya (muloqot) sohasi turli mutaxassislarining maqolalarida sotsiolingvistikaga oid muammolar ko‘tarib chiqildi. Kitobning “So‘zboshi”sida J.A.Fishman “til sotsiologiyasi” va “sotsiolingvistikka” terminlarining sinonim sifatida qo‘llanishiga e’tibor qaratadi. Sotsiolingvistikka (lotincha soctios-jamiyat va lingvistika) – tilshunoslik,

sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya, etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiatini, uning ijtimoiy vazifalari ijtimoiy omillarning tilga ta’sir ko’rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o’rni bilan bog‘liq ko’plab muammolarni o’rganuvchi ijtimoiy nazariy sohadir.Sotsiolingvistikating eng muhim vazifalaridan biri- tildagi o’zgarishlarni jamiyatdagi o’zgarishlar bilan bevosita bog‘liq ekanligini o’rganishdir.Sotsiolingvistikada grammatika hal qiluvchi omil emas.Sotsiolingvistika grammaticani to’la-to’kis rad etmaydi, lekin uni birinchi

planga qo’ymaydi, grammaticadan ko’ra lisoniy vositalarning ijtimoiy axborot qiymati muhimroq o’rin egallaydi.Shuning uchun til sotsiologiyasi tilning qurilishi va tuzilishi haqidagi fan bo’lsa, sotsiolingvistikka bevosita nutq, tildan unumli foydalanish jarayoni haqidagi sohadir. Sotsiolingvistikadagi jamiyat tushunchasi til sotsiolingvistikasidagi jamiyat tushunchasidan anche tor.Bunda jamiyat deganda muayyan nutq jarayoni ishtirokchilari, bu nutq sharoiti tushuniladi. Sotsiolingvistikka sotsial tilshunoslikdan keskin farqlaridan biri nutq vaziyati ya’ni nutq jarayoniga alohida diqqat-e’tibor qaratishdir.Sotsial tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu ish to’g’ri emas. Zeroki, sotsial tilshunoslik tilning ichki tizimi, uning birliklari va qurilishi bilan shug’ullanar edi. Sotsial lingvistika fanologik sistema birliklaridan tortib butun til strukturasigacha bo’lgan barcha til hodisalarini ijtimoiy shartlashgan hodisalar deb qaraydi.

Sotsiolingvistikating shakllanishida I.A.Boduen de Kurtenening til hodisalarining ijtimoiy shartlanganligi, shuningdek, tilning qo‘llanishi va rivojlanishiga ekstralolingvistik ijtimoiy omillar ta’siri borasidagi tadqiqotlari katta rol o‘ynagan. 1974-yilda “Русский язык зарубежом” jurnalida e’lon qilingan maqolada N.G.Mixaylovskaya I.A.Boduen de Kurteneni “rus va sovet tilshunosligidagi sotsio-etnolingvistik tadqiqotlarning asoschisi” tarzida atagan. I.A.Boduen de Kurtene: “Til faqat kishilar jamiyatida mavjud ekan, u holda, uning ruhiy tomonidan tashqari, ijtimoiy tomoniga ham har doim e’tibor qaratishimiz kerak. Nafaqat individual psixologiya, balki sotsiologiya ham tilshunoslikning asosi bo‘lib xizmat qilishi lozim”, - deb yozgan<sup>3</sup>. XX asrning birinchi yarmidagi sotsiolingvistikka diaxron jihatdan talqin qilingan bo’lsa, ya’ni unda til evolyutsiyasi bilan jamiyat rivojlanishining bog‘liqligiga e’tibor qaratilgan bo’lsa, XX asrning ikkinchi yarmidagi sotsiolingvistik tadqiqotlar sinxron xarakterga ega bo‘lib, ularda til strukturasi unsurlari bilan jamiyat strukturasi unsurlari orasidagi bog‘liqlik tahlil qilina boshlangan desak mubolag’a bo’lmaydi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Z.Xolmanova "Xorijiy sotsiolingvistika" o'quv qo'llanma-T., .2013.
2. Xolmanova Z. "Tilshunoslikka kirish" kursining namunaviy dasturi.-T.,2000
3. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-T., 2002.
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi



“SADDI ISKANDARIY” DOSTONI MUQADDIMASINING UMUMIY TAVSIFI

Otanazarova Shodiya A’zambek qizi

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti 215-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonining umumiy tavsifiga bag‘ishlanadi. Dostonning har bir bobি mazmuniga alohida to‘xtalinadi hamda misol tariqasida asardan baytlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** “Xamsa”, doston, dostonchilik, “Iskandar devori”, hamd, kamolot.

**GENERAL DESCRIPTION OF THE FRIEND “SADDI ISKANDARIY”**

**Abstract:** This article is devoted to the general description of the great thinker Alisher Navoi’s epic “Saddi Iskandariy”. The content of each chapter of the epic is considered separately, and bytes from the work are given as an example.

**Keywords:** “Khamsa”, epic, “Alexander’s wall”, praise, human, perfection.

Navoiy ijodiy takomili ikkinchi bosqichining tayanch ustuni – shoirning shoh asari “Xamsa” desak yanglishmaymiz. 1483-yildan Alisher Navoiy o‘zining eng buyuk asari “Xamsa” turkumini yozishga kirishadi va 1485-yilda tugallaydi. Besh dostonni o‘z ichiga organ bu ulkan badiiy qomus 50 mingdan misradan oshiq bo‘lib, Navoiyning barcha she’riy merosining deyarli yarmini tashkil qiladi. Ammo gap hajmda emas. “Xamsa” Alisher Navoiy ijodining qalbidir. Buyuk bobokalonimiz o‘zi tuzgan birinchi devoni “Badoyi’ ul-bidoya” bilanoq turkiy tildagi she’riyatni arab va fors mumtoz adabiyotining eng peshqadam namunalari darajasiga olib chiqqan edi. Ammo bu ishlar barchasi “Xamsa” yozilmasa, nafaqat bizning turkiy xalqlarning adabiyoti, ma’naviyati, balki butun islom mintaqasi ma’naviyati bugungi yaxlitligi, bugungi tugalligiga ega bo‘lmas edi, deb bemalol aytish mumkin. Alisher Navoiydek asliy oshiqning dunyoga kelishi, unga berilgan ulug‘ iste’dodning mohiyati “Xamsa” uchundir, bu buyuk ijodkor merosining avvali ham, oxiri ham “Xamsa” tufaylidir.<sup>1</sup>

Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari har biri alohida necha-necha tadqiqotlar mavzusi bo‘lib keldi, yana bu ish davom etadi. Chunki ularning mazmun qabatlari benihoyadir. Bu dostonlar shaklan qanday mukammal bo‘lsa, mazmunan undan ham uyg‘un, koinot singari munazzam va had-hududsizdir.<sup>2</sup>

Islom aqidalariga ko‘ra bir kecha-kunduzda o‘qiladigan besh vaqt namoz “al-Xamsatu” deyiladi, dinimizning besh ustuni (rukni) ham –tavhid (imon), namoz, ro‘za, zakot, haj – o‘ziga xos “xamsa” (beshlik)ni tashkil etadi. Demak, Nizomiy dostonlarining “Xamsa” turkumi sifatida talqin etilishi, unga Amir Xusrav va Navoiy javoblari bejiz emas. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining muqaddima qismida bu masalaga maxsus to‘xtib, “Xamsa” ning har bir dostoni yozilishini kunning ma’lum vaqtlarida o‘qiladigan sahar(fajr), peshin(zuhr), asr, shom va xufton namozlari bilan qiyos etadi hamda “Xamsa” ni buyuk tog‘ cho‘qqisiga ko‘tarilish mobaynida besh o‘rinda to‘xtab, nafasni rostlash uchun bino etilgan besh oromgohga o‘xshatadi.<sup>3</sup> Bu oromgohlarni yaratish uchun shoir “Bilik taxti uzra chiqib o‘lturmagi”, “Xayol elchisi” ni har tarafga choptirishi, “jon mulkidan” “maoniy sipohini” (ma’nolar lashkarini) guruh-guruh (favj-favj) yetkazb berib turishi, ma’no lashkarlari jam bo‘lgach, insonlar dilini zabit etishga kirishmog‘i, ya’ni ma’naviyat olamida jahongirlik san’atini namoyish qilmog‘i lozim edi. “Xamsa” dostonlari ijtimoiy hayotni, turli toifalarning hayotdagи o‘rni va vazifalarini ularning butun ichki dunyosi va ruhiyati bilan bog‘liq holda tadqiq etadi, shu bilan birga undagi barcha botiniy rishtalar Tavhid e’tiqodiga borib ulanadi.

Bu asar dunyodagi buyuk siymlardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri jahongir Iskandarga bag‘ishlangan bo‘lib, “Xamsa” ning yakunlovchi dostonidir. “Saddi Iskandariy” “Xamsa”dagi eng yirik doston bo‘lib, 89 bob va 7215baytdan tashkil topgan. Dostonning muqaddimasi 14 bobni o‘z ichiga oladi. 1-bob an’anaviy hamd – Allohning sifatlari ta’rifiga bag‘ishlangan. Navoiy ushbu

<sup>1</sup> Adhambek Alimbekov. Turk adabiyoti tarixi, T ., TDSHI, 2005. -B, 46.

<sup>2</sup> Adhambek Alimbekov. Turk adabiyoti tarixi, T ., TDSHI, 2005. -B, 47.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 11-jild. T., “Fan”, 1993. –B.39.



bobda tasavvuf ta’limoti asosida olamning yaratilish tarixiga to‘xtalib o‘tadi: 9 qavat osmon, sayyoralar turkumining har biriga alohida ta’rif beradi. Yaratganning buyukligiga hamd-u sano aytadi. Bularning barchasidan maqsad eng oliv zot Odamni yaratish ekanligini ta’kidlaydi:

Karam birla xalq aylagay olame,  
Bu olamda maqsud anga odame.  
G‘araz odame anga olam tufayl,  
Nekim g‘ayri olamdur, ul ham tufayl.

2-bob munojotni o‘z ichiga oladi. Navoiy bobda Allohning karami kengligi haqida gapirar ekan, banda zoti mavjud ekan, uning gunoh ishlar qilishi tabiiy degan aqidani ilgari suradi:

Ilohiy, alarkim gunahkar ekin,  
Sen o‘tkarmagan ne gunah bore kin?  
Chu har mujrimekim, sen etting karam,  
So‘rulmas hamul jurm ila o‘zga ham.  
Agar afv birla karam budurur,  
Bori xalqning jurmi ma’rufdurur.

Munojot so‘ngida Navoiy quyosh yerni o‘z nurlari bilan munavvar qilgan chog‘da zarralar orasidagi farqni fahmlab bo‘lmagnidek, zarralarga karam qilgan chog‘ingda Navoiyga ham bir zarra kabi karam aylagil, uning gunohlarini kechirgil deb iltijo qiladi:

Yorurda quyosh partavidin saro,  
Qachon farq o‘lur fahm zarrot aro.  
Qilur vaqt bu zarralarg‘a karam,  
Navoiyg‘a lutf ayla bir zarra ham.

Dostonning 3-bobi “sayyid ul-mursalin” (payg‘ambarlar ulug‘i) rasuli akram vasfi (na’t) dan iborat. Navoiy dastlabkibaytlarda payg‘ambarlik nuri haqida gapirar ekan, Odam Ato unga o‘g‘il, qolganlar nabira qatoridadir deydi va barcha muqaddas kitoblarda uning xususiyatlari bayon qilinganligini ta’kidlaydi. Rasuli akramning tug‘ilishi go‘yo ko‘kda yana bir quyoshning portlashiga o‘xshatiladi:

Sening tug‘mog‘ing ravshan aylab jahon,  
Aningdekki, tuqqay quyosh nogahon.

An'anaga muvofiq, na’tdan so‘ng me’roj tuni ta’rifi keladi. Navoiy bu bobda payg‘ambarimizning birin-ketin 9-osmonga ko‘tarilganlari, sayyoralarining bu holatni ko‘rib, hayratga tushgani, nihoyat Lomakon olamiga sayr qilib, 70ming qavat parda ko‘tarilib, Janobi Haq bilan diyordorlashganlari jarayonini kuchli pafos bilan tasvirlaydi. Ularning yerga qaytishlari ham falak ahli va maloyiqlar tomonidan chuqur hayrat bilan kuzatilgani betakror badiiy san’atlar vositasida bayon qilinadi:

Falak ahli ichra alolo tushub,  
Malak xaylig‘a sho‘ru g‘avg‘o tushub.  
Maloik tutub yo‘l boshin javq-javq,  
Tamoshosida borcha ko‘nglida shavq.

Dostonning 5-bobi “Xamsa” takmili (mukammal bitkazish) xususida bo‘lib, Navoiy bu bobda unda “Xamsa” yozish havasi ancha ilgari, Navoiy va Dehlaviy “Xamsa”larine o‘qib yurgan chog‘laridayoq uyg‘onganligini bayon qilib, ulug‘ ustozlari ruhidan madad so‘raydi:

Bu vodiy aro Xizri rohim bo‘ling,  
Qayon yuz keltirsam panohim bo‘ling.  
Burundin chu ko‘rdunguz yorliq,  
Base yetti sizdin madadkorliq.

6-bob so‘z ta’rifi, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy madhiga bag‘ishlangan. Navoiy bu bobda dastlab so‘zga ta’rif berar ekan, uni o‘z ahamiyati bilan inson idrok etgan hamma narsalardan yuqori baholaydi, uni “javhari jon”, “obi hayvon” degan sifatlashlar bilan madh qiladi:

Biyikrak maqom ichra aflokdin,  
Ne aflokdin, vahmu idrokdin...  
Bashar zotida javhari jon ham ul,  
O‘luk jismida obi hayvon ham ul.

Navoiy so‘z xazinasiga ega bo‘lganlarning nodiri yaktosi sifatida Ganjada parvarish topgan zot Nizomiy Ganjaviyni tilga olib, kotiblarning homiysi Atorud (Merkuriy) uning xizmatkoridir deydi. Shuningdek, bu bobda Nizomiy beshligiga munosib javob bitgan Xusrav Dehlaviy ham



madh etilib, unga so‘z jodugari, ilm hikmat bilimdoni deb ta’rif beriladi. So‘z avjida Nizomiy quyosh bo‘lsa, Dehlaviy Mushtariy kabitidir deyiladi:

So‘z avjida gar ul mahi xovariy,  
Bu gar yo‘q mahi xovariy, Mushtariy.

7-bob Nizomiy va Dehlaviyning nazmdagi izdoshlari Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bag‘ishlangan. Navoiy kitobot (harf ) san’ati vositasida Jomiyning taxallusiga ishora qilib, uning nazmini “jom” va “may” deb ta’riflaydi va bu nazmdan yer-u ko‘k eli mast-u notavon bo‘lganini aytadi:

Dema jom ila mayki, nazmi ravon,  
Yer-u ko‘k elin ayladi notavon.<sup>1</sup>

Shuningdek, Navoiy ushbu bobda Jomiyning g‘azal-u masnaviy janrlarida erishgan yutuqlariga ham to‘xtalib o‘tib, uning “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlarini nomma-nom sanab o‘tadi:

G‘azal dard-u so‘zini, vah-vah, ne dey,  
Desa masnaviy, Alloh-Alloh, ne dey...  
Bo‘lub jilvagar tab’i ko‘zgusida  
Ki, sabt ayladi “Xamsa” o‘trusida...  
Burun jilva aylab ayon “Tuhfa” si,  
Berib olam ahliga jon tuhfasi.  
Yana “Subha” jon rishtasin tor etib  
Ki, har muhra bir durri shahvor etib.  
Chu Yusuf so‘zin oshkor aylabon,  
Zulayho kibi elni zor aylabon.  
Chekib xoma “Layli-yu Majnun” sari,  
Yuz ofat solib tog‘-u homun sari,  
Bu damkim qilib xomasin durfishon,  
Iskandar hadisidin aytur nishon.

Bu ma‘lumotlar adabiyotshunoslikdagi Jomiyning “Xamsa” yozgan-yozmaganligi bilan bog‘liq bahslarga ham munosib javob bo‘la oladi.

Dostonning 8-bobi – “Inoyat quyoshi vasfi va hidoyat buluti ta’rifida” deb atalib, bu bobda Navoiy kimgaki baxt-u iqbol yor bo‘lsa, uning hamma ishida zafar bo‘ladi, tikan ushlasa g‘uncha, tuproq olsa oltin bo‘ladi, bularning barchasi Xudodan, shunday ekan unga shukrona bildirish kerak degan fikrlarni keltirar ekan, Alloh unga nazm yoyish fazilatini taqdim qilgani uchun unga shukrona aytadi va nazmning turli sinf (janr)larida shuhrat qozonganini faxr bilan bayon qiladi:

G‘azal tarzig‘a avval aylab sitez,  
Jahon ichra soldim ulug‘ rustaxez.  
O‘qur vaqtি ahli salomat muni  
Ko‘rub olam ichra qiyomat kuni...  
Har asnofi zikri emas sha’nima,  
Bilur har kishi boqsa devonima.<sup>2</sup>

Shuningdek, Navoiy nazmdagi bu muvaffaqiyatlariga qanoat qilmay, ulug‘ muddao “Xamsa” yozish niyatida ekanini, bu yo‘lda Nizomiy va Dehlaviylarning nuroniy ruhiga, Jomiyning ilohiy quvvatiga “Qur‘on” tilovat qilib, fotiha o‘qiyan deb yozadi:

Alarning ravoni pur anvorig‘a,  
Bu birning dog‘I quvvati korig‘a.  
Qilib fotiha xatmi ixlos ila,  
Ko‘zum bahrida jismi g‘avvos ila.

9-bob Shoh G‘oziy Husayn Boyqaro ta’rifiga bag‘ishlangan. Navoiy bu bobda mubolag‘a san’ati vositasida Muhammad (s.a.v) payg‘ambarlar orasida alohida mavqedan bo‘lsa, Sulton Husayn Boyqaro ham barcha shohlar ichida shunday maqomdadir deb yozadi. Shuningdek, uning janggohdagi mahoratini tasvirlar ekan, doston mazmuni bilan bog‘liq ravishda dushmanlariga nisbatan Iskandardek g‘ov chekadi, agar jahonda Iskandardek ulug‘sifat zotni topish kerak bo‘lsa, Sulton Husayndan boshqasi mos kelmaydi, deb yozadi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 11-jild. T., “Fan”, 1993. –B.56

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 11-jild. T., “Fan”, 1993. –B.63.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 11-jild. T., “Fan”, 1993. –B.70.



Dostonning 10-bobi shahzoda Badiuzzamon Bahodir madhidadir. Navoiy unga donishmandlik bog‘ining sarvi, zamona ahlining shahzodasi deb ta’rif berar ekan, zoti ham, sifati ham malak (farishta) ga o‘xshashini aytib, tavze’ (bir tovushni bir necha marta takrorlash) va takrir (bir so‘zni baytda ikki va undan ortiq holda takrorlash) san’atlari vositasida uning boshdan-oyoq yaxshilik va yaxshi xislatlardan iborat ekanligini bayon qiladi:

Yig‘ib yaxshiliq birla yaxshi qiliq,  
Qiliqdek boshingdin ayoq yaxshiliq.

11-14-boblarda qadimgi fors-eron shohlarining to‘rt tabaqasi: peshdodiyalar, kayoniylar, ashkoniyalar va sosoniylar tarixi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Islom ma’naviyati namoyondalari o‘z ijodlarida salaflarini inkor etish, ilgari batamom ko‘rilmagan yangilik yaratishga intilish emas, balki ustozlar yaratgan ma’naviy boylikni yanada takomillashtirish, unga yangi jilo berish, ular izlagan yaxlit va buyuk haqiqatning yangi va toza qirralarini kashf etish, mazmuniy boyitish yo‘lidan borganlar. Bu tom ma’nosi bilan muqaddas an’ana bo‘lib, islomning ilohiy kitobi “Qur’oni Karim”dan sarchashma oldi. Dehlaviy “Xamsa” si Nizomiya ajoyib sharh va undagi mazmunlarning yangicha talqini sifatida o‘zining ham, salafining ham shuhratini olamga yoydi. Keyingi XIV-XV asrlar mintaqqa ma’naviyati “Xamsa” an’anasi ta’sirida rivoj oldi, shoirning salohiyati va iqtidori hech bo‘lmaganda “Xamsa”ning bir dostoniga munosib javob yoza bilish bilan o‘lchanadigan bo‘ldi. Bu jahon ma’naviyati tarixida betakror hodisadir. Turkiy adabiyotda Qutb va Haydar Xorazmiylar boshlab bergan “xamsachilik” an’anasi o‘zining kamolini Alisher Navoiy ijodida kutayotgan edi va bu qutlug‘ intizorlik benihoya ezgu samara berdi. Nizomiy, Amir Xusrav, Alisher Navoiy ruhiyatları “Xamsa”ning ma’naviyat maydonida birlashib, yagona iqlim, yagona mohiyat kasb etdilar. Ushbu yagona mohiyat butun islam mintaqqa ma’naviyatining eng buyuk cho‘qqisidir. Nizomiy va Amir Xusrav badiiy olamini ham butun ko‘lami bilan idrok etib bo‘lmaydi.

### Foydalilanlgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 11-jild. T.: “Fan”, 1993. –640 b.
2. Adhambek Alimbekov. Turk adabiyoti tarixi, T ., TDSHI, 2005. – 480 b.
3. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni konkordansi (Tuzuvchilar: A.Quronbekov, A.Mannonov, M.Imomnazarov, D. Ahmedova, A.Nishonboyeva) T.:TDSHI, 2016. – 832 B.



## SOTSIOLINGVISTIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI.

Turayeva Jumagul Ibragim qizi  
TerDuLingvistika:o'zbek tili 2-bosqich magistranti  
Tel:+99899-121-56-88  
suvanovesanboy@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda sotsiolingvistika fanining shakllanishida turli qarashlar va fikrlar haqqida so‘z borgan.

**Kalit so‘zlar:** Sotsiolingvistika, til va jamiyat, ijtimoiy lingvistika, dialektik asos, tilshunos, satsiolog.

Sotsiolingvistika termini fan sifatida shakllanishida turli xil qarashlar mavjud. Ba’zi olimlar amerika tilshunoslari bu termini fanga olib kirganligini ta’kidlasa, fransiya, germaniya tilshunosligiga nazar tashlagan har bir tilshunos shuni anglab yetadiki,Sotsiolingvistika ijtimoiy tilshunoslik fani sifatida 20-30- yuqorida yillarda yuzaga keldi.Bunda har bir hudud tilshunoslari turlicha yondashgan desak,maqsadga muvofiq bo’ladi. Til taraqqiyoti davri uni o’zini alohida emas boshqa fanlar bilan birgalikda rivojlanishda ko’ra boshladi.Til va jamiyat tushunchalari Sotsiolingvistika fanini yuzaga keltirdi. Professor A.P.Barannikov 1919-yilda yozgan maqolasida shunday fikrlarni ilgari surgan : ” Hozirgi tilshunoslikka e’tibor bilan qarasak,bu fan ijtimoiy til bilimlari hisoblanib fan va til qonuniyatları o’rtasidagi o’zaro bog’lanish mavjud bo’lib, uni quyidagicha o’rganish mumkin . Birinchidan, til umumjamiat qonunlari asosidagi hodisa sifatida tushuniladi, ikkinchidan tilni bir necha davr taraqqiyot mevasi sifatida his etish maqsadga muvofiq.Shu tariqa ijtimoiy lingvistikaning vazifaviy doirasi kengayib bordi.

30-40-yillarda o’zbek tilshunosligida ham shu kabi an`analar davom etdi.Fitrat ,Elbek, Botu va boshqa olimlar qarashlarida ijtimoiy lingvistika haqidagi qarashlari o’zbek ijtimoiy tilshunosligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi desak bo’ladi. 50-yillarga kelib esa barcha tillar aloqasini o’rnatish muhim masalalardan biriga aylandi. Har bir tilni milliy til asosida o’rganish yangicha g’oyalalar keltirib chiqardi.

Akademik Y.Marr ham har bir milliy tilni o’rganishni o’zining yangi talqinidagi eng muhim omillardan biri deb biladi. Bundan tashqari, u milliy til va uning dialektal asoslaridagi tillarning evolyutsion rivojlanishi, adabiy va noadabiy tillar elementlarining mavjudligi, ularning ijtimoiyligi haqida muhim g’oyalarni ilgari suradi. Ikkinchidan, tilning ijtimoiy dialektologiya va ijtimoiy tabaqlanish haqidagi qarashlari haqiqatda muhim masalalarni ko’tarishiga shubha yo‘q. Chunki bu masalalar ijtimoiy til muammolarini har tomonlama o’rganishga asos bo’ladi. Shunday qilib, 20—40-yillarda sotsiolingvistika fanining ilk bosqichlari va uning amalga oshirilishi sodir bo’ldi. 50—60-yillarda ijtimoiy tilshunoslik nazariyalari biroz bo’sada rivojlandi. 70—80-yillarda esa ijtimoiy tilshunoslikning tadqiqot ob’yekti kengayib, mustahkamlandi. Kun tartibiga quyidagi masalalar kiritildi: a) umumiylar; b) til aloqasi masalasi; v) til birlashmalari va ularning rivojlanishi; d) tilning ijtimoiy va hududiy masalalari. 70—80-yillarda Yevropa tilshunosligida sotsiologlar va tilshunoslар bilan hamkorlikda sotsialingvistika bilan bog’liq holda o’rganildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.Xolmanova ”Xorijiy sotsiolingvistika” o’quv qo’llanma-T., .2013.
2. Социолингвистические исследования. М., 1976.
3. Социолингвистика. Киев, 1987.
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi



## ХАРАКТЕРИСТИКА ЧТЕНИЯ КАК ВИДА РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Буранова Мадина Уктамовна**

Старший преподаватель кафедры

“Английского языка и литературы”

Самаркандский государственный

институт иностранных языков

email: madinaburanova82@gmail.com

**Аннотация.** Обучение чтению - это важная деятельность, выполняемая учителем в классе. Это деятельность, направленная на то, чтобы помочь студентам научиться читать некоторые слова и предложения, давая знания о значении текста. Она начинается с обучения студентов тому, как найти тему, основную идею, а также понять смысл во всех абзацах текста. Учитель должен направлять учащихся к пониманию и осмыслинию смысла текста и получению новых знаний из написанного текста.

**Ключевые слова:** чтение, текст, понимание, метод, речевая деятельность

Глобальная цель любой образовательной системы - подготовка молодого поколения к адекватному участию во всех сферах деятельности общества. Для достижения этой цели образовательный процесс должен строиться с учетом особенностей развития современного поликультурного общества, для которого характерны, во-первых, множественность взаимодействующих языков и культур, а во-вторых, множественность текстов и текстовых форматов, циркулирующих в глобальном информационном пространстве, созданных современными средствами массовой коммуникации [Ж.Ж.Жалолов, 2015, с. 88].

Чтение-это рецептивный вид речевой деятельности. Напомним, что речевая деятельность - это активная, целенаправленная и опосредованная языковая система, процесс передачи и приема сообщения, обусловленный коммуникативной ситуацией [ Д.К.Раджабова, 2019, с.523].

“Чтение-это процесс восприятия и семантической обработки информации, графически закодированной в соответствии с системой конкретного языка. Чтение состоит из рецептивной и содержательной обработки информации. Таким образом, в чтении различают содержательный план (смысл текста) и процедурный план (как читать и озвучивать текст).

В содержательном плане результатом деятельности является понимание текста (чтение), в процессе - сам процесс чтения, то есть соотнесение графем с фонемами, формирование внутреннего речевого слуха, перевод на внутреннее произношение, редукция внутреннего произношения и т. д. Для того чтобы перейти к осмысленному плану (то есть пониманию), необходимо выработать процедурный план правильного чтения.

Процессы зрительного восприятия изучаются в психологии достаточно подробно (в отличие от понимания). Начальным моментом чтения, его сенсорной основой является зрительное восприятие текста (восприятие осуществляется комплексами, то есть единицей времени является слово). Любое восприятие зрительного образа слова сопровождается актом его слухо моторного образа, иначе говоря, внутренним произношением, без которого распознавание невозможно. У зрелого читателя восприятие автоматизировано, что позволяет ему сосредоточиться на понимании текста (мыслительных операциях), а не на языковой форме. Внутреннее произношение сведено к минимуму. Чтение формирует качества наиболее развитой и социально ценной личности. Особенность чтения, в отличие от восприятия таких видов культуры, как телевидение, видео, заключается в том, что это всегда работа — интересная, приятная, радостная, но работа. Именно труд, вложенный человеком в себя, формирует в нем эти качества.

С психологической точки зрения чтение-это единый процесс, состоящий из техники чтения и понимания при чтении (то есть процессуального и содержательного аспектов). Понимание согласуется с техникой чтения как целью и средством. В структуре чтения как деятельности можно выделить мотив (общение с использованием печатного слова), цель (получение интересующей читателя информации), условия деятельности (владение графической системой языка и способами извлечения информации) и результат (понимание текста с различной степенью точности).



Структурно чтение, как и любая речевая деятельность, характеризуется уровневым характером, что приводит к поэтапной работе в обучении чтению. Большинство методистов выделяют следующие этапы: мотивационно - стимулирующий, аналитико-синтетический, контрольно исполнительный. Следовательно, обучение чтению будет строиться так же, как и обучение другим видам речевой деятельности, то есть как поэтапный процесс, и будет включать в себя пред-текстовый этап: мотивацию, подготовку к чтению, текстовый (существенно чтение) и после текстовый этапы.

Чтение - это деятельность, которая делается для того, чтобы уловить идеи или информацию письменного текста. Читая, читатели получат знания, которые важны в повседневной жизнедеятельности. Для учащихся чтение-это деятельность, которая может мотивировать их к активному пополнению своих знаний и активизации мыслительного процесса. Это вызвано тем, что во время чтения они улавливают и усваивают много информации из своего чтения.

Получение большого количества информации при чтении поможет студентам получить много знаний, особенно связанных с их учебой. Поэтому студентам рекомендуется заниматься чтением ежедневно, для того, чтобы обогатить их знания об окружающем их мире. Кроме того, навыки чтения помогут, студентам улучшить произношение и пополнить словарный запас.

Согласно Нунану, чтение-это свободный процесс, когда читатель комбинирует информацию из текста и свои собственные фонетические знания для создания смысла текста. Умение читать очень важно для повседневной жизни и дает студентам информацию для понимания текста, потому что цель чтения - это понимание. Читая, студенты могут расширить свои знания, такие как социальные, культурные, политические и так далее [ Nunan , 2003,с.68].

Кроме того, чтение также может быть названо инструментом для получения информации студентами. Это также помогает студентам освежить свои идеи, понять многие типы слов и предложений, которые могут улучшить их способность к чтению. Кроме того, Сейлер определяет чтение как процесс получения или конструирования смысла из слова или группы слов. Это означает, что чтение-это процесс объединения слов и предложений, чтобы читатель мог получить смысл из слов. Затем словесный кластер, как инструмент для студентов, облегчит им понимание идей из предложений. В словесных кластерах учащиеся могут предсказывать основные идеи предложений, не читая их [Saler, 2004,с.185].

В методологии преподавания иностранных языков существуют различные подходы, которые можно применить к обучению чтению. Они могут быть классифицированы в соответствии с различными критериями:

[ Ж.Ж.Жалолов, 2015,с. 57].

1. *По источникам информации:*

1) вербальные методы - беседа, объяснение;

2) метод работы с книгой - работа над учебником, чтение дополнительной литературы, отрывков произведений, стихотворений, романов, рассказов;

3) метод наблюдения - проведение эксперимента;

4) методы упражнений и практики – практический опыт учащихся.

2. *По параметрам качества, как особенности когнитивного процесса:*

1) объяснительно-иллюстративный метод;

2) Репродуктивный метод;

3) Метод решения проблем;

4) Метод исследования;

3. В соответствии со спецификой и характером иностранного существуют следующие методы обучения: 1) демонстрация; 2) объяснение; 3) практика; 4) самоконтроль.

4. Методы взаимодействия преподавателя и обучающихся в аспекте организации учебного процесса:

1) ознакомление учебного материала на основе визуального восприятия материала

2) самостоятельна работа с учебным материалом;

3) практика продуцирования речи;

4) практика приема речи;

5) мотивационное использование устной и письменной речи;



- 6) контроль, коррекция и оценка речевых актов.
- 7) контроль, коррекция, оценка речи

Данные методы демонстрируют взаимодействие между учителем и учащимся. Учитель (или учебник) организует алгоритм операций и действий, а учащиеся реализуют их. Эти методы, относящиеся к общим дидактическим методам, отражают специфику иностранного языка как субъекта и уровня ее изучения. Но в тоже время они привносят доминирующую идею, например, метод наблюдения или объяснительно-иллюстративный метод. Это инструменты, которые можно последовательно использовать при работе с новым материалом. Если мы используем наглядные пособия, мотивационные стратегии, различные ситуационные контексты, во время презентации нового материала учащиеся будут лучше воспринимать, понимать и запоминать новый материал.

Эти методы образуют иерархическую систему; они находятся в побочном подчинении; учащийся переходит от этапа ознакомления к пониманию, затем к обучению и использованию, то есть к общению. Как и в процессе обучения, необходимо провести оценку для эффективного получения учащимися точности и беглости. Для этого используются различные способы (методы).

#### **Список использованной литературы**

1. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиши методикаси: чет тиллар олий ўкув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслар.— Тошкент. Ўқитувчи, 2012 – Б.432.
2. Раджабова Д. К. Анализ этапов чтения как вида речевой деятельности / Д. К. Раджабова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 21 (259). — С.523-525. — Адрес: <https://moluch.ru/archive/259/59387/> (дата обращения: 24.03.2021).
3. Nunan D. (2003). Practical English language teaching. New York: The McGraw-Hill
4. Seyler U. D. (2004). The reading context: developing college reading skill. New York: Person Education



## TOPONOMIK LEKSIKOGRAFIYA TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMINING MUHIM YO'NALISHLARI SIFATIDA.

Boltaboyeva Nargiza Maxamatjon qizi

Andijon davlat universiteti

FCHT (aniq va tabiiy) kafedrasи o'qituvchisi.

E-mail: boltaboyevanargiza37@gmail.com

tel +998997033030

**Annotatsiya:** Toponomika va geografik nomlarining ma'lum geografik hududdagi yig'indisi toponomiyalarning leksikografiyasini leksik-semantik tizimining leksikologiyadagi muhim yo'naliishi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** toponomiya, leksikografiya, etimologiya, izohli lug'atlar, Mahmud Qoshg'ariy, Suyun Qorayev.

**Abstract:** Toponomics and the collection of geographical names in a certain geographical area provide information about the lexicography of toponomies and the important direction of the lexical-semantic system in lexicology.

**Key words:** toponomy, lexicography, etymology, explanatory dictionaries, Mahmud Kashgari, Suyun Karayev.

**Аннотация:** Топономика и совокупность географических названий в определенной географической области дают информацию о лексикографии топономий и важном направлении лексико-семантической системы в лексикологии.

**Ключевые слова:** топономия, лексикография, этимология, толковые словари, Махмуд Кашигари, Суюн Каравеев.

Jamiyatning hududiy tashkil etilishini tasvirlab beruvchi asosiy ko'rsatkichlaridan biri muayyan o'rashgan joyi bilan tasvirlanadi. Tabiiy yoki sun'iy kelib chiqishiga ega bo'lgan geografik obyektlar toponomik atamalar hisoblanadi. Mamuriy-hududiy birliklar viloyatlar, tumanlar, shaxarlar, shaxarchalar, qishloqlar va boshqa shu kabi obyekt nomlarining har biri zamonaviy geografik fanlar tizimiga kiruvchi sohalarda batasfil o'rganilgan.

**Toponomika** yunoncha *topos-joy* va *onoma* (yoki *onima*) -**nom** so'zlaridan tarkib topgan. Geografik obyektlarning nomlarini Toponomika fani o'rganadi [1, B.5]. Geografik nomlarning ma'lum geografik hududdagi yig'indisi Toponomiya deyiladi. Bunday nomlar ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'yusunadi. Toponomika atoqli otlarni o'rganadigon **Onomastika** fanining bir qismi bo'lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi. Bundan ko'rinish turibdiki toponomik leksikografiya tilning leksik-semantik tizimining muhim yo'naliishi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, dunyo fanida toponomik malumotlarga ilmiy yondashuv dastlab Sharq olimlaridan **Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg'ariy** asarlarida kuzatilgan. Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston", "Qonuni ma'sudiy", "Saydana" asarlarida toponomikaga oid qonuniyatlar, O'rta osiyodagi joy nomlari va ularning izohi haqida ko'plab malumotlar bayon etilgan. Tilshunos olima D.N.Satimova takidlaganidek, "Millatning millat ekanini namoyon qiluvchi, uning qay darajada milliy boy ekanligini aks ettiruvchi, uning o'tmishi, tarixi hamda diniy va ilmiy salohiyatini yuzaga chiqaruvchi birlamchi omil, asosiy hodisa, shubhasiz uning so'z va iboralaridir [2, B.270]." Buning yorqin misoli sifatida mashhur tilshunos va geograf olim Maximud Qoshg'ariyning "Devoni Lug'otit Turk" asari ham joy nomlarini o'rganishda kata ahamiyatga ega bo'lgan. Bundan bilinadiki qadimdan toponomik leksikografiyalar nafaqat tilshunoslikda balki, jamiyatning ham shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib kegan.

Leksikografiya leksikologiyaning lug'at tuzish va ularni o'rganish masalalari bilan shug'llanadigon bo'limi bo'lib, so'zning semantik tuzilishi, so'zlarining hususiyatlari, talqinini o'rganuvchi fandir. Antol Fransning yozishicha, "lug'at – alfabit tartibida joylashtirilgan voqelikdir". Bundan borliqdagi jamiiki narsa, hodisa va voqealar har bir tilning lug'at boyligida aks etadi, degan ma'no kelib chiqadi [3, B.125].

Lug'atlarning izohli, tarjima, imlo, maxsus etimologik sinonimlari, ontonimlar, xorijiy so'zlar, frazelogik, morfemik va so'z yasovchi, gramatik, orfologik, neologismlar, epitetlar,



antroponimlar, toponimlar, qisqartmalar va boshqa turlari mavjud bo’lib, bular leksikologiyaning asosiy qismlari hisoblanadi [3,B.126]. Toponomik lug’atlar asosan izohli lug’atlar orqali tasnif beriladi. Izohli lug’atlar bir tilli bo’lib, lug’at ichiga kiritilgan so’z va iboralarga bir tilda izoh beriladi. Bunday lug’atlarga ingliz tilining “Oxford Dictionary”, “O’zbek tilining izohli lug’ati” va boshqa shunga o’xshagan lug’atlar misol bo’ladi.

O’zbekiston toponomikasiga oid dastlabki malumotlar S.Qorayevning ta’kidlashicha, Maskvalik yirik tilshunoslaridan biri V.A.Nikonov o’zining “Qisqacha topnomik lug’at” toplamida dunyodagi 4 mingga yaqin yirik geografik obyektlar nomlarini kelib chiqishini izohlab bergan [4,B.41]. shuningdek Vengryalik olim Aminiy Vamberining O’rta Osiyoga mahfiy sayohati jarayonida yozilgan “Markaziy Osiyoning geografik nomlari” deb atalgan nemis tilidagi asari xisoblanadi. Asarning lug’at qismida 600ga yaqin geografik nom va atamalar alifbo tartibida berilgan. Bu lug’at izohli lug’at bo’lib Andijon - ont, qasam va jon, jonday inoqlik, degan ma’noni bildiradi deb izohlar keltirilgan. Andijon atrofida, o’z davrida xarakterli bo’lgan o’gil bolalarning dost tutunishi ya’ni “andi” bo’lish oditi bo’lgan. Bunday do’stlar o’lim xavf solib turganda ham do’stini qutqarishga qasam, ont ichishi lozim bo’lgan. U yerda yashagan aholining oilaviy aloqalarida boshqalardan ajralib turgan belgisi bu o’g’il bolalarning andi bo’lib do’st tutunishi oditi bo’lgan. Andijon toponimi shu odatdan kelib chiqqan bo’lishi mumkin [1, B.121].

Har qanday fan amaliyot talablari ta’sirida paydo bo’ladi va rivojlanadi. Toponomika ham birinchi galda geografiyaning amaliy ehtiyojlari asosida vujudga kelgan. Dastlabki sayyoohlар o’zлari kashf etgan yerlarga nom berdilar, uzoq о’lkalar va shaharlar nomlarini hammaga ma’lum qildi. Buning natijasida tilshunos olimlar atamalrn tarjima qilishdagi muammolarga duch kelgan va izohli va turli leksik lug’atlar yozilgan. Bunday lug’atlar leksikografiya fanining rivojlanishi tasirida saqlanib kelinmoqda.

Zamonaviy leksikografiya kompyuterlashtirishsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Vaqt o’tgani sayin an’anaviy usullar birin ketin qayta ishslash bilan almashtirildi va electron lug’atlar paydo bo’ldi. “Elektron lug’atlar orqali vaqtini, intelektual resurslarni va materializmni tejash kabi imkoniyatlar eshigi ochildi. Bundan tashqari, ushbu resurs leksikografik jarayonni nazorat qilishning aniqligi va puxtaligini ta’minlash, yo’l qo’yilgan, ilgari sezilmagan xatolarni tezda tuzatish va yangi leksikografik majmualar yaratish yo’llarini berdi [2,B.271].” V.V. Dubichinski takidlaganidek “Kompyuter leksikografning iltimosiga ko’ra leksemaning semantic o’zgarishlarini, qo’llanish doirasini aniqlashi, tasvirlangan birlikning hosilaviy, sintaktik, pragmatik tomonlaridagi o’zgarishlarni qayd etishi mumkin [5,B.160].”

Har qanday tilning lug’at tarkibi topnomik leksikografiysi atoqli otlardan ya’ni geografik atamalardan, terminlardan tarkib topgan bo’ladi. Bizningcha topnomik leksikografiyalar leksikaning ma’no, grammatick va stilistik belgilarni ko’rsatishi, boshqa tillar bilan solishtrishi, ularning ma’nolarini aks ettirishi kerak. Zero, innovatsion rivojlanishlar sodir bo’layotgan davrda har bir tilshunosning oldiga qo’ygan yuksak vazifasi lug’atshunoslikni avtomatlashtirish, elektronlashtirish bo’lishi lozim. Bu birinchi navbatda tilimizga bo’lgan hurmat e’tirofni anglatadi.

### Adabiyotlar:

1. S.Qorayev. Toponomika. Toshkent,2006-B5/121.
2. D.N.Satimova. Substandard atamalar va ularning lingvistik kiberlug’atlarda qo’llanilishi; NamDu, 2/2022. B.269-275.
3. M.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish . Toshkent,2008-125.
4. Y.I.Ahmadaliev.Toponomik va geografik terminshunoslik. Farg’ona,2018-B.41
5. Dubichinskiy V.V. Теоретическая и практическая лексикография. Вена-Харьков: Репрография. 1998-160c
6. O’zbek tilining izohli lug’ati. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 7-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000